



YOSHLAR  
KUTUBXONASI

Cho'lpon

# KO'KLAM RUHI





**CHO'LPON**

# **KO'KLAM RUHI**

*She'rlar*

YOSHLAR NASHRIYOT UYI  
TOSHKENT – 2019

UO'K 821.512.133-1  
KBK 84(50)'6  
Ch 98


Yoshlar egallari

### Cho'lpon.

Ko'klam ruhi [Matn]: / she'rlar / Cho'lpon. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 176 b.

*Cho'lpon lirikasi rang-barangligi, nozikligi va jozibasini bilan o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin egallaydi. Mazkur to'plamdagi sara she'rlarni o'qir ekansiz, adibni haqiqiy vatanparvar shoir, ozodlik va hurlik kuychisi, deb atatingiz keladi.*

UO'K 821.512.133-1  
KBK 84(50)'6



ISBN 978-9943-5529-6-8

1045754  
19/08

© YOSILAR NASHRIYOT UYI,  
2019

## O'ZBEGIM

So'liqildab kelasan, o'zbekim,  
 Ma'rifat otiga o'tlanib,  
 Bir miri topgan boladay -  
 Og'zingni irjaytib.... suyunib  
 Dunyoda hamma xalq qiziqqan -  
 Gavhardek bebaho ot edi.  
 Hurriyat bo'lganda sen kelding,  
 Minayin semirgan otga deb,  
 Og'zingga "mallalar" bir tepdi,  
 "Ma'rifat haromdur sartga", deb  
 Og'zingdan qon keldi, yig'lading,  
 Ko'zingdan zaharli yosh keldi.  
 Ko'raman, oxirda minibsan,  
 Charchagan bo'lsa-da, otingga.  
 Tangriga shukr qil, yura ber,  
 Ko'z solib, o'ngingga, chapingga!  
 Tez tuzat, oh... mana bir xatong:  
 Otingni chopasan shaharda.  
 Qishloqda faqirlar kutadur -  
 Kechada, kunduzda, saharda!  
 Bilgilkim, hayoting, tomiring,  
 O'zbekim, kambag'al qishloqda.  
 Qishloqda chopasan otingni,  
 Chopishing behuda toshloqda.

1919-yil

## GO'ZAL

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,  
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.  
Ul yulduz uyalib, boshini bukih,  
Aytadir: "Men uni tushda ko'ramen,  
Tushimda ko'ramen – shunchalar go'zal,  
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!"

Ko'zimni olamen oy chiqqan yoqq'a,  
Boshlaymen oydan-da seni so'rmoqq'a.  
Ul-da aytadir: "Bir qizil yanoqq'a  
Uchradim tushimda, ko'milgan oqq'a.  
Oqq'a ko'milganda shunchalar go'zal,  
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

Erta tong shamoli sochlarin yoyib,  
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.  
Aytadir: "Bir ko'rib, yo'limdan ozib,  
Tog' va toshlar ichra istab yuramen!  
Bir ko'rdim men uni – shunchalar go'zal,  
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

Ul ketkach, kun chiqar yorug'lik sochib,  
Undan-da so'raymen sening to'g'ringda,  
Ul-da uyatidan bekiniib, qochib,  
Aytadir: "Bir ko'rdim tushdamas, o'ngda,  
Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,  
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

Men yo'qsil ne bo'lib uni suyibmen?!  
Uning-chun yonibmen, yonib kuyibmen.  
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen.  
Men suyib... men suyib kimni suyibmen?  
"Men suygan suyukli shunchalar go'zal,  
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

*Toshkent, 1919-yil*

## XAYOLI

Ko'nglimdagi muhabbatning uchqunin  
 Xayolimning bir burchida berkitdim.  
 Ul uchqunning kuchligidan sɣnamda  
 Hech tuzalmas, og'ir yara bor etdim.  
 Qulog'imga "Ol baxt!" deb eshitilgan  
 Azonlarni shaytoniy deb o'yladim,  
 Shuning uchun baxt bergan malakka  
 Turli-turli afsonalar so'zladim...  
 Sochlarini o'ynab turib eshitdi,  
 Va dedikim: "Afsonalar behuda!"  
 Bul so'zları qulog'img'a yetishdi:  
 "Oqdim, – dedim, – qonli, zardobli suvda..."  
 "Oq-oq, – dedi afsonalar sultoni,  
 –"Sening taxting, baxting unda kutadir;  
 Ul zardobli, qonli suvlar ostida  
 Qora kiygan jonıng jılva etadir".  
 Ket, ey shayton, bosinqiradim... qo'rqamen:  
 Ket-ket. Qilich singan, qalqon teshilgan.  
 Ko'rasanmi? Men ezilgan yotamen,  
 Ustimga-da balo tog'i yiqilgan.  
 So'nggi nafas, oxirgi dam, ey malak,  
 Kel, bir qara, so'ngra yiqilsun falak.

*Toshkent, 1920-yil*



## SHARQ QIZI

*Singlimga*

Aytalar, kim sovuq, shumli qora qish  
 O'tib ketib, kelmish chiroyli bahor.  
 Gulga oshiq bo'lib, sayrar emish qush,  
 Gul ham ul qushlarga nozlanib qarar.  
 Aytalar, dalada yer beti tamom  
 Ko'm-ko'k duxobadan ko'ylaklar kiymiş.  
 Xo'rozlar chaqirib, yuzin ochsa tong,  
 Saboning labini oshiqlar emmiş...  
 Har kimda bir shodlik, har kimda bir ruh,  
 Har kim kulib qarar emish dunyog'a.  
 Hatto, chol-boboylar aytalarmish: "Uh  
 Chiqib yursang edi yozgi havog'a!"  
 Faqat men bir o'zim, Sharqning bir qizi  
 Bahor kelganini ko'rmay qolamen.  
 Uzun, qora qishning ketmasdan izi  
 Uning do'sti – kuzni kutib olamen.  
 Menim uchun yorug' dunyo rohati –  
 To'rt devor ichında ko'zlar o'ynatmak.  
 Menim uchun ulug' shodlik soati –  
 Telba ko'kragimda o'ylar uyg'otmak...  
 Men bir Sharq qizimen, Sharqning o'zidek  
 Butun tanim, jonim – xayol uyasi.  
 Menim qora ko'zim kiyik ko'zidek  
 Belgisiz ovchining o'qin ko'rgusi...  
 Aytalar, kim yozda har bir jonivor  
 Erkin nafas olar, shodlanar, yayrar...  
 Aytmaylar, kim Sharqda borliq xotinlar  
 Ul yorug' dunyoga ne zamon kirar?

*Toshkent, 1920-yil*

## PO'RTANA

Po'rtana qo'zg'aldi, po'rtana yurdi,  
 Po'rtana o'zini qirg'oqqa urdi.  
 Po'rtana oldida bir kema ko'rdi;  
 Ichida zich odam... o'ynatdi, surdi.  
 Ul kuchli, ul botir, ul qo'rqmas, yuraklik,  
 Ul mag'rur, kerilgan ham majnun, hovliqma,  
 Faryod der qirg'oqlar undan, shu tug'rolik –  
 Shahardek kemalar unga bir luqma...  
 Ul o'zi qon ichar, qon olur bo'lsa-da,  
 Bag'rida sevgisi kuchli,  
 Baqirib, o'kirib, yugurib yursa-da,  
 Go'zalni suyuvga o'chli...  
 Suv qizi:  
 Chiroyli, sochlari qop-qora,  
 Bo'ynidan sochilgan, tarqoq,  
 Ko'zlari dil tortar, chetroqdan bir qara.  
 Ilinding... rahmsiz ul tuzoq...  
 Ko'zlari kiyikni ko'r qildi, ko'rmading,  
 So'zlari – bulbulni tutqin;  
 Yuzlari oylarni botirdi, bilmading,  
 Bulutlar ostiga qochib kirdi kun!  
 Ana shul go'zalni, ana shul malakni  
 Yo'q, yanglish... falakni,  
 Po'rtana ko'ksida saqlar,  
 Yerlar sarf etar g'ayratni, amakni  
 Ish qilib malakni,  
 Yo'q... jahon, falakni  
 Oq ko'pik ichida oqlar.  
 Ba'zida hisobsiz oq ko'pik ichiga  
 Sultondek tutqizar uni,  
 Dam ko'kka irg'itib, dam tortar ko'ksiga.

Shu yo'lda o'ynatur qizni,  
 Kuldırrib u nurli yuzni.  
 Suydirib u ohu ko'zni,  
 Qul qilib sizni ham bizni...  
 Ko'piklar... u oppoq, sanoqsiz ko'piklar  
 Yulduzdek jimirlab turalar,  
 Ko'piklar... u kichik, chiroylik ko'piklar  
 Oshiqning ko'nglidan uralar...  
 Qichqirar, bo'kirar, bo'kirar yo'lbarsdek,  
 Yugurar, sekirar, otilur devdek.  
 Oldida hech to'siq. Hech mone qo'ymasdek  
 Intilar... o'ng-so'lni ko'rmay...  
 Ko'tarsa boshini, ko'klarga tegadir.  
 Bulutlar, chaqmoqlar dahshatda,  
 Egsa ul bo'ynini, ko'p vaqt egadir,  
 Suv tegin ko'rasan dahshatda.  
 Jonvorlar qo'rqadir... dahshatda titraydir.  
 Baliqlar o'limni kutalar  
 Kuchligi kuchsizni yutmaydir, sitmaydir.  
 Qo'rqudan og'ular yutalar...  
 Dengiz tinch, qo'rquv yo'q. Qiyomat uxlaydir.  
 Po'rtana jim-jitdir uyda.  
 Shamolni po'rtana qo'zg'atmay saqlaydir  
 Qo'zg'almoq degan so'z yo'q unda.  
 Bu - mahshar, qiyomat, po'rtana. To'lqinlar -  
 Hammasi yo'qsilning ko'nglida.  
 Bir damda dunyoni kuydirur vulqonlar  
 Ojizning u o'tli dilida...  
 O'yna, ey to'lqinlar, po'rtana dahshat sol.  
 Qirg'oqlar titrasin, qo'rqib,  
 Ko'k yuzi; yer osti tinch bo'lsa - vahshat sol  
 Daryodan suv tashlab, purkab.

Bu mening keng ko'nglim g'avg'oni, janjalni,  
To'polon, qo'zg'alish, chuvalash,  
Isyonli, to'fonli  
Suyadir; shuning chun dunyoni, jahonni,  
tog' va tosh  
Hammasin ag'darmoq istaydir,  
yonadir, kuyadir...  
O'ynat, ey, po'rtana, to'xtatma, quvvat ol.  
Chog' kelgach, erinib yotma, uxlama,  
bo'lmasin yo'qlama.  
Ko'p ezgan dushmandan,  
past yondan  
O'chni ol,  
o'chni ol,  
o'ch ol!...

*Toshkent, 1920-yil*

## ULUG' BRITANIYANING BU KUNGI HOKIMIYATIGA

Temza bo'ylariga besh-o'nta  
 Tog'larday haybatli zindonlar soling!  
 Riyokor bo'lmagan, haq degan erni  
 Zulm qo'li bilan zindonga soling!  
 Lankastar shahrining ko'chalarida  
 Polis nafarlari tinmay aylansin.  
 Ishladim, haqqimni so'rayman, degan  
 Har ishchi zanjirga siqib boylansin!  
 Qilichlar, miltiqlar, pulemyot, to'plar  
 Tokay amringizga bo'yin egadi?  
 Tokay haq so'zlagan miyalar, boshlar  
 Dorlarning ipiga borib tegadi?  
 Tokay ig'vo bilan, aldashlar bilan  
 Million-millionlarni asir qilasiz?  
 Tokay anglamagan, xom miyalarga  
 Jannat va'dasi-la ta'sir qilasiz?  
 O'n qavat, yuz qavat zindonlaringiz  
 O'zingiz uchun ham tor katak bo'lur!  
 Riyokor so'zlagan u tariq tillar<sup>1</sup>  
 Yana o'zingizga qarshi o'grilur!  
 Mazlumlar, ezilgan, xor bo'lganlarning  
 G'azab olovlari bir kun tutashar!  
 "Intiqom! Intiqom!" degan na'ralar  
 To'lqinday quturib Temzadan oshar!  
 O'shanda Temzaning suvlari qadar  
 Quturib oshishliq bizda ham bo'lar.

1920-yil

<sup>1</sup> O'sha tarzdagi tillar, demoqchi.

**ULUG' YO'LDA**

Yo'limizda cho'llar, suvlar, dengizlar.  
Bosh uchini tanib bo'lmaslik izlar.  
Shu izlarni bosib, dengizlar kechib,  
Buyuk amal bilan boramiz bizlar.  
Yurakdagi saqlab borgan amallar,  
Yo'llardagi dengizlardan ulug'roq.  
Ezilganlar tilak tilar bu yo'li,  
Burungidan to'luqroq.  
Mahkam qilib bog'lanilgan kamarlar,  
– Tezrak!  
– Qanot!  
Qushlar yanglig' uchaylik.  
Keng cho'llardan, dengizlardan kechaylik,  
Sharqning eski chigalini yechaylik!

*Toshkent, 1920-yil*

## YORUG' YULDUZGA

*(Hazar esdaligi)*

Go'zal yulduz, nurli yulduz, tez so'zla.  
 Otalarning tarixdagi xatosin,  
 Shul xatodan osuflanib tovlarning  
 El ko'ksida surgan ishrat, safosin.  
 So'zla, anglat o'tgandagi turmushning  
 Butun qonli, shonli, jonli yerlarin.  
 Ko'z oldimda jilvalanur yurt uchun  
 Jonlar berib, qonlar to'kkan yerlaring.  
 O'ynat, qo'zg'at, to'lqinlantir, hovliqtir  
 Keng Hazarning ko'm-ko'k, yumshoq suvlarin,  
 So'zlattirib, charchat, horsin, charchasin,  
 Teri oqsin, ko'kka chiqar bug'larin.  
 Ko'piklantir, mayda, oppoq ko'pikdan  
 Ko'ylak kiydir, yasantir suv betlarin,  
 Ul suvlar-la pardozi qildir, kiyintir  
 Tog'li, toshli qirg'oqlarin, chetlarin.  
 Nega jimsen, nega javob bermaysen,  
 Nega ko'zing qizarindi, yoshlandi?  
 Nega yuzing so'lgan kabi yumshardi?  
 Nega senda bir talvasa boshlandi?  
 Bilamen men, so'zlamaysen shuning-chun –  
 So'zlaydirgan yaxshi so'zing yo'q erur.  
 Og'iz ochsang, yo'qsil elni ezmakka,  
 Qon qilmoqqa hasratlaring ko'p erur.  
 Mayli, mayli, qandoq achchiq bo'lsa ham,  
 To'g'ri so'zni yashirmasdan so'zlay ber,  
 Har qanchalar yurak yorg'ich kuy bo'lsa,  
 Botir bo'lib sekingina kuylay ber.  
 O'tganlarning zahari ham bu kunda

Ko'ngillarga tegmay o'tar kabidir.  
Kechmishlarning yig'isi ham shu kunda  
Yo'qsil dilni suyuntirar kabidir.  
Falokatlar ko'rgan ota-bobolar  
Istiqbolning qimmatini bilmagan.  
El va yurtni saqlar uchun so'ng xonlar  
Tuzukkina chora, tadbir qilmagan.  
Biz, yo'qsillar, boshqalarga qul bo'lib,  
Chet oyoqlar tomonidan ezildik.  
Har yaramas, har buzuqning tagida  
Alam ortgan, jabr ko'rgan biz edik.  
Yetar, bo'ldi. Meni gapga solding-da,  
O'zing unda tinglabgina turasan:  
Yana, tag'in ta'sirlanib so'zimdan,  
Oh-voh qilib, o'zni har yon urasan.  
So'zla, sen-da tillaringni o'ynatib,  
Eski alam ichra bizni olib bor.  
Yashirin yotgan pardalarni, zulmatni  
Qarab turma, nuring bilan yirt-yubor.  
Yalintirma, boshqalarga yalingan  
Kabi sen ham yalintirmoq istaysen,  
Ezilganni ezishlikka sen, go'zal.  
Ozroq sharm, ozroq hayo qilmaysen?  
So'zla, anglat, go'zal yulduz, tez so'zla,  
Men-da seningdek chiroyli so'ylarmen.  
Hazardagi ko'piklarga birlashib,  
Seni maqtab shirin kuylar kuylarmen.  
Og'iz ochding, tovshing keldi, ey yulduz,  
So'zla, so'zla, yot kishi yo'q, ikkimiz...

*Bahri Hazar, 1920-yil*



## ZARAFSHON

*(Safar esdaligi)*

Ko'z oldimda oqib yotkan Zarafshon,  
 Yosh boladek erkalaydir, o'ynaydir.  
 Hovliqma ham bo'lsa o'zi, ko'p chaqqon,  
 Uncha-muncha to'siqlarni qo'ymaydir.  
 Katta-kichik toshlar bo'lsa yo'lida,  
 Hech qaramay sudrab ketar ilgari.  
 Kim biladir, jon topshirmish qo'lida,  
 Hazil-hazil bilan qancha yosh-qari?..  
 Uning o'zi shu o'ynoqi qilig'i.  
 Shu hovliqma odati-la ko'p qo'rqinch,  
 Suvlarining nozli qizdek sillig'i  
 Ko'p tanlarni ag'dararlik katta kuch!..  
 Undan qo'rqinch uning o'tkarganlari,  
 Saltanatlar, qonlar, ulug' tarixi.  
 Siynasida bo'g'ib o'ldirganlari,  
 Ko'p jonlarning ingrayishi va ohi!  
 Tarixining qanotlari so'ng yillar  
 Allaqanday qora rang-la bo'yalmish.  
 Yonlarida yashaguvchi ko'p ellar  
 Qora yozmish qozig'iga suyalmish...  
 Sho'x-sho'x oqib, yuragida yashirincha  
 Tarixlarni, asrlarni qarg'amish.  
 Bilarmikin, o'z umrida ul qancha  
 Yaxshi erlar yod etmish-da, alqamish?  
 Ay, Zarafshon, o'ynab-kulib oqa ber,  
 Mazlumlarning yuragini yoqa ber...

*Samarqand, 1920-yil*

## QALANDAR ISHQI

*(Eski tartibda)*

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,  
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku.

Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lqini bordir,  
Halokat bo'lg'usini bilmay qulochni katta otdim-ku.

Ajib dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do'stlar,  
Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.

Uning gulzorida bulbul o'qib qon ayladi bag'rim,  
Ko'zimdanda yoshni jo aylab, alamlar ichra botdim-ku.

Qalandardek yurib dunyoni kezdim, topmayin yorni  
Yana kulbamga qayg'ular, alamlar bir-la qaytdim-ku.


Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,  
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

*Boku, 1920-yil*

## TORTISHUV TONGI

Yenggan qo'shin boshlig'idek gerdayib  
 Botgan quyosh bulutlarning ostidan  
 Bosh ko'tarib chiqmoq uchun tirishar.  
 Shuning uchun beri yoqda irjayib  
 Kulishurlar.  
 Unga qarshi, qarshidan  
 Yig'lov, siqtov, tovush, g'avg'o, xarxasha.  
 Suyuningiz:  
 ko'pdan beri zindonda  
 Quyosh ko'rmay, zaxlab qolgan ko'ngillar.  
 Chiqar kunlar yetdi sizga undan-da,  
 Munda yechib yuborilgan tugunlar.  
 Qayg'uringiz:  
 Kishanlarni yasovchi ustalar.  
 Boshqalarni tubanlar deb atovchi  
 xo'jalar,  
 Sizning uchun yoz boshining qoridek  
 Eruv kunlar keladir,  
 Sizning uchun alvastining zoridek  
 yig'lar kunlar keladir..  
 Chiqadiringan quyoshni siz behuda  
 Etak bilan to'smoq uchun tirishmang,  
 Ahmoq bo'lib Azroilning oldida  
 Jon talashing, to o'lguncha berishmang.

*Toshkent, 1920-yil*



## MAHMUDXO'JA BEHBUDIY XOTIRASI

Julgisiz qabringni qora tunlarda  
 Amalimning shamin yoqib, izladim.  
 Qizil va pok qoning islarin sochgach,  
 Kuchsiz ko'yi yurishimni tezladim.  
 Amalimning yulduzi, kim ko'z tikdi  
 Qora, jirkanch... o'lim qoni yerlarga.  
 Savol berdim: "Yo'qotganim qayda?" – deb,  
 O'zimni ham yutmoq bo'lgan yerlarga.  
 Qo'lidagi tutam-tutam gulini  
 Qabring topib, sochmoq uchun tirishdi.  
 Gul o'rniga zahar tilar muhitda  
 Uning qilgan bu ishlari bo'sh ishdi.  
 Men-da ojiz – u muhitning oldida  
 Qabring topib ko'z yoshimni to'kmakka.  
 Hamda achchiq hiddatim-la ul yerda  
 Oq kallalik qora devni so'kmakka.  
 Shuning uchun yulduz kabi yarqirab,  
 Elda qolgan isming bilan turamen.  
 Shul ismni eslab, chizg'an yo'lingdan  
 Yiroq ketmay, qimirlamay yuramen.  
 Aziz otam, qo'limdagi gullarning  
 Motam guli ekanini bilmaysen.  
 Shodlik guli ko'pdan beri so'lganin,  
 Yer ostida, pok ruhing-la sezmayesen.  
 Ana, sochdim qalbimdagi gullarni  
 Termak uchun chaqiramen qo'llarni..

1920-yil

## PARCHA

Maqtadim, ko'kka ko'tardim sizni men,  
Endi menga sizga yetmaklik qiyin.  
Maqtamoqqa bir kirishgach maqtayin,  
To'xtasam, so'nggi tinimda to'xtayin.

*1920-yil*

\* \* \*

Miltiragan xira chiroqsen, yo'qsil,  
Yel qattiqroq kelib ursa o'charsen.  
Yor aldagan sevguchining ruhiday,  
Bir lip etib yo'qliklarga ko'charsen.

*1921-yil*

\* \* \*

Xayol, xayol... Yolg'iz xayol go'zaldir,  
Haqiqatning ko'zlaridan qo'rqaman.  
Xayoldagi yulduzlarkim, amaldir,  
Olovimni alar uchun yoqaman.  
Go'zal xayol, kel, boshimda gul o'ynat,  
Manim istak-tilagimni erkalat!

*1921-yil*

## SUYGAN CHOQLARDA

Go'zallarning malikasi ekansan,  
Buni sening ko'zlarindan o'qidim.  
O'qidim-da istiqbolim qushiga  
Xayolimdan oltin qafas to'qidim.  
Gunafshalar qulog'imga madhingni  
So'zlab-so'zlab charchadilar, bitmadi...  
Alamzada bulbul yig'lab, kechalar  
Alamingning so'ngin tamom etmadi.  
Ko'zingdagi hikoyaning mazmunin  
Shoir bo'lsam, aytib-aytib yig'lardim.  
O'shal, eski jarohatli qalbimni  
Satrlarning nashtari-la tilardim.  
Xayolimning qip-qizildan kuyingan  
Parilari, hurlarini ko'rdingmi?  
Alamimdan gullar ekan yo'llardan  
Koinotga hayot sochib yurdingmi?  
Yo'llaringda she'r aytsa so'lgan barg,  
Qulog'imga musiqalar keltirur.  
Qachon sening musiqali ovozing  
Sening meni suyganingni bildirur?

1921-yil

**KLEOPATRA UYQUSI<sup>1</sup>**

“Kleopatra” Nilning bo'yida  
O'z qo'li birlan nilufar uzdi.  
Go'zal chechakni, yozuqsiz gulni  
Ishdan chiqardi, turmushin buzdi.  
Bir to'plam qildi, bir ipak birlan  
Boshiga osib, uyquga ketdi.  
Ul uxlaganda butun Misrda,  
Butun o'lkada uyg'oqlik bitdi...  
Jim tur, farishta, qanoting qoqma,  
Fir'avnning qizi tinchlab uxlasin!  
Uning yuzidan, go'zalligidan  
Oshiqning ko'ngli bir orom olsun!  
Uning yotishi – Kunning botishi!  
Qorong'ilikda yulduzlar o'ynar.  
Butun oshiqlar, ko'ngli yonuqlar  
Go'zal o'ylarni shul choqda o'ylar.  
Tuban qarab yur, Nilning suvin ko'r:  
Qanday chiroyli, limillab oqar.  
Fir'avn qiziday, ilon iziday  
Buralib oqar, qimirlab oqar...  
“Kleopatra” uyg'ondi nega?  
Nega ul chog'siz uyqusin ochdi?  
Uning ko'zidan, go'zal yuzidan  
Uyqu, qizillik, to'liqlik qochdi?  
Ana, qo'lini gulga uzatdi,  
Boq, ipni uzdi... gullar qo'lida!  
Oj... g'ijim qildi, yerga tashladi!  
Ko'p yo'qsil gullar qurbon yo'lida..  
– Nega tashladi?  
– Gul so'lgan edi...

<sup>1</sup> “Kleopatra” nomli sochma hikoyamning tizma shaklidir.

Shuning chun zolim yerga tashladi!  
O'zini ko'r: bir mast ilon yanglig'  
Joyida yotib, to'lg'oq boshladi.  
Bor, ey yigit, sen Nilning bo'yidan  
Zolim qiz uchun nilufar keltir!  
Zolim qizini bu sirli kechda  
Ko'p urintir, tezroq tinchlantir.  
Bir to'plam gulni boshiga ossa,  
Yana uyquga ochar quchog'in.  
Yo'qsa bu zolim hech bosa olmas  
Yuragidagi sevmaslik dog'in...  
Qo'y, sen qo'zg'alma... mening ko'ksimda  
Ko'z yoshim birlan o'skan chechak bor.  
Shuni berarmen, bir hidlash birlan  
Sevgiga botib, bir umr uxlar!..

*Buxoro, 1921-yil*



## XALQ

Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir.  
 Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir...  
 Xalq qo'zg'alsa, kuch yo'qdir, kim to'xtatsin.  
 Quvvat yo'q, kim xalq istagin yo'q etsin.  
 Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi.  
 Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi...  
 Xalq istagi: ozod bo'lsin bu o'lka,  
 Ketsun uning boshidagi ko'lanka.  
 Bir qo'zg'alur, bir ko'pirar, bir qaynar,  
 Bir intilur, bir hovliqar, bir o'ynar,  
 Yo'qlikni-da, ochlikni-da yo'q etar,  
 O'z yurtini har narsaga to'q etar...  
 Butun kuchni xalq ichidan olaylik,  
 Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!

*Buxoro, 1921-yil*

## KEL BERI

Kel menga, kel, kel menga,  
 Quchoq'inni ochganmen.  
 Turmush – haqiqat bo'lsa,  
 Borlig'inni otganmen.  
 Men kuchli, menda isyon,  
 Men – to'liqin, menda tug'yon.  
 Ko'pirurmen, tosharmen,  
 Chegaramdan osharmen!  
 To'fonim yelni bosar,  
 Turmush tog'larin oshar  
 Va o'lmas, mangu yashar!..

*Devonabog', 1921-yil*

## MEN QOCHMADIM

*(Toshkentdagi o'rtloqlarimg'a)*

Men qochmadim! Nega meni "qochdi" deb,  
Yo'qq'a buncha shovqun-suron qildingiz?  
Quchog'ini "o'zlig"iga ochdi deb,  
Oq ismimga qora zanjir ildingiz?  
Men "o'zlik"dan ko'pdan beri uzilib,  
"Ko'plik" ichra botib ketkan tanamen.  
U "ko'plik"ning qayg'usida cho'zilib,  
Quloch otib, suzib yurgan – yana men.  
Men yangiliklar o'lkasidan sınımag'an  
Bir qanotni taqib olib, qo'zg'aldım;  
Shu yo'limda yaproqlari so'lmag'an  
"Yosh yag'och"ning soyasida to'xtaldım.  
Ikki ko'zim yalt-yult etib ko'kimdan  
Tilagimning yulduzını qaraydır.  
Chog'-chog' yig'lab, o'tib ketib o'ngimdan  
Qora bulut, uning yuzin qoplaydır.  
Biroq yana uning yuzi ko'rinib,  
Ko'zlarimni qamashtirib qo'yadir.  
Qilich botib, xanjar dilga urunib,  
Tunga yana qaysi qarash to'yadir?  
Men qochmadım! – men tilakni ızlaymen,  
Qanot kuchlik, borgan sarı tezlaymen!

*Buxoro, 1921-yil*

## ULUG' YO'LOVCHIGA

*A.M. ruhiga:*

"Dunyog'a ishlar uchungina kelganmen".

(O'z so'zi)

Boqchalarda gullar so'ldi, sezmadim,  
O'stirganlar yetim bo'ldi, sezmadim,  
Ko'ngillarga qora to'ldi, sezmadim,  
Sezdım sening ketganingni ko'ngıldan...  
Ketgan yo'ling yiroq yo'ldır, keti yo'q,  
Boshlanishi quruq va keng bir bo'shliq.  
Tugalishi: yana cheksiz bir yo'qlik,  
Biroq qaytmoq yo'qdır tushkan yo'lingdan...  
Ketding, biroq izlaringda ko'z qoldi,  
Tillaringda aytilmagan so'z qoldi,  
O'ksiz bo'lib, yotlar emas, "o'z" qoldi,  
Chuqur ma'no istab eski so'zingdan.

*1921-yil*

## NAVRO'Z KUNIDA

Xira, o'chkan, kirlik, kuchsiz dillarga  
 Yorug' yog'du turmush sepgan yangi kun,  
 Sira sevinch bermas o'zbek qiziga,  
 Yo'qsa ung'a mangulikni qora tun?  
 Necha yuz yil kishanlarda entikkan  
 Qashshoq, yo'qsil, tutqunlarga erk berar,  
 O'zbek qizi: "Boshqalarga erk bergan  
 Menga qani erking?.." – desa, ne deyar?  
 Ko'klardagi dona-dona sochilg'an  
 Yulduzlarmi ezgu kunni olqishlar?  
 Kinga tegar yulduz ko'zdan otilg'an  
 Achchiq gina, la'natlar-u qarg'ishlar?  
 Guloy, To'ti, Qumri, Oyxon, Yorqinlar  
 Navro'z kuni devorlarga qaraylar.  
 Ko'chalarda er-qizlardan oqinlar,  
 Tutqunlarning yonlarig'a kirmaylar.  
 Qatorlarga ularni ham olmaylar,  
 Tutqunlarni kishiga ham sanmaylar...  
 Tutqunlarning ko'z yoshlari bahorning  
 Shudringidek go'zallikni ho'llaylar.  
 "Go'zallikni sevdim" degan erkinlar,  
 Ko'rib turib uyalmaylar. O'lmaylar!..  
 Navro'z kuni erksizlarga erk berar,  
 O'zbek qizi erkli kunda bo'sholmay,  
 Zindon kabi tor uyidan chiqolmay,  
 Qalin, og'ir devorlarni yiqolmay,  
 Borlig'ini keng dunyoga otolmay,  
 Chin erk kunni kuta-kuta telmirar...

*Toshkent, 1921-yil*

**MEN VA BOSHQALAR***(O'zbek qizi og'zidan)*

Kulgan boshqalardir, yig'lag'an menmen,  
O'ynag'an boshqalar, ingrag'an menmen.  
Erk ertaklarini eshitkan boshqa,  
Qullik qo'shig'ini tinglag'an menmen.  
Boshqada qanot bor, ko'kka uchadir,  
Shoxlarg'a qo'nadir, bog'da yayraydir.  
So'zlari sadafdek, tovushi naydek  
Kuyini har yerda elga sayraydir.  
Menda-da qanot bor, lekin bog'lang'on...  
Bog' yo'qdir, shox yo'qdir, qalin devor bor.  
So'zlari sadafdek, tovushi naydek.  
Kuyim bor. Uni-da devorlar tinglar...  
Erkin boshqalardir, qamalg'an menmen,  
Hayvon qatorida sanalg'an menmen.

*Toshkent, 1921-yil*

## KUZ

Ko'm-ko'k ekan, sarg'aydilar yaproqlar –  
Og'riq, mag'lub, tutqun Sharqning yuzidek.  
Bo'ronlarning ko'zlari, kim o'ynoqlar,  
G'olib G'arbning qonga to'lgan ko'zidek,  
Qora bulut to'dasi kim ko'klarni –  
Sharqni yopgan parda yanglig' yopimushdir.  
Kuz qo'shini – og'u to'lug' o'qlarni  
Yoz bag'riga hech sanoqsiz otmishdir!  
Balo yanglig' qator-qator chizilib,  
Ko'k yuzidan qarg'alar ham o'talar.  
Sharqdek ichdan yashiringina ezilib,  
Ko'p jonlilar so'nggi tinni kutalar.  
Butun borliq – chog'lik o'chish oldida,  
Sovuq... qora qishga ko'chish oldida.

*Buxoro, 1921-yil*

## BUZILGAN O'LKAGA

Ey, tog'lar ko'klarga salom bergan zo'r o'lka,  
 Nega sening boshingda quyuq bulut ko'lanka?  
 Uchmohlarning kavsaridek pokiza,  
 Sadaflarning donasidek top-toza  
 Salqin suvlar tog'dan quyi tusharkan,  
 Tomchilari yomg'ir kabi ucharkan,  
 Nima uchun yig'lar kabi ingraylar?  
 Yov bormi, deb to'rt tarafni tinglaylar?  
 Tabiatning o'tini yo'q o'tida,  
 Sharaq-sharaq qaynab chiqqan buloqlar  
 Har qorong'i, qo'rqinch tunning betida  
 Shifo istab kelmasin der, qo'noqlar.

- Bu nega?

Ayt menga.

Ko'm-ko'k, go'zal o'tloqlaring bosilg'on,  
 Ustlarida na pada bor, na yilqi,  
 Podachilar qaysi dorg'a osilg'on?  
 Ot kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga

- Oh, yig'i,

Bu nega?

Tumorchalar hamoyillar taqingan,

Dalalarda lola bargi yopingan,

Tog'-toshlarda o'yin qilgan,

Chopingan

Go'zal qizlar, yosh kelinlar qayerda?

Javob yo'qmi ko'klardan-da, yerdan-da,

Xarob bo'lgan eldan-da.

Ot minganda, qushlar kabi uchguvchi,

Erkin-erkin havolarni quchg'uvchi,

Ot chopganda, uchar qushni tutquvchi,

Uchar qushday yosh yigitlar qayerda?

Tog' egasi – sor burgutlar qayerda?

Sening qattiq sir – bag'ringni ko'p yillardir ezganlar,  
Sen bezsang-da, qarg'asang-da, ko'kragingda kezganlar.

Sening erkin tuprog'ingda hech haqi yo'q xo'jalar,

Nega seni bir qul kabi qizg'anmasdan yanchalar?

Nega sening qalin tovshing "ket" demaydi ularga?

Nega sening erkli ko'ngling erk bermaydi qullarga?

Nega tag'in tanlaringda qamchilarning kulishi?

Nega sening turmushingda umidlarning o'lishi?

Nega yolg'iz qon bo'lmishdir ulushing?

Nega buncha umidsizdir turishing?

Nima uchun ko'zlaringda tutashguvchi olov yo'q?

Nima uchun tunlaringda bo'rilarning qorni to'q?

Nima uchun g'azabingni uyg'otmaydir og'u-o'q?

Nima uchun borlig'ingda bu daraja buzg'unlik?

Nima uchun o'ch buluti sellarini yog'dirmas?

Nima uchun kuch tangrisi bor kuchi-la soldirmas?

Kel, men senga qisqagina doston o'qiy,

Qulog'ingga o'tganlardan ertak to'qiy.

Kel, ko'zingning yoshlarini surib olay

Kel, yarali tanlaringni ko'rib olay, to'yib olay.

Nima uchun ag'darilgan, yiqilgan

Og'ir toyning zahar o'qi ko'ksingda?

Nima uchun yovlaringni bir zamon

Yo'q qilg'unday temirli o'ch yo'q senda?

Ey, har turli qulliklarni sig'dirmagan hur o'lka,

Nega sening bo'g'izingni bo'g'ib turar ko'lanka?

*Andijon, 1921-yil*



## AMALNING O'LIMI

Ko'nglimda yig'lag'an malaklar kimlar?  
 Sharqning onalari, juvonlarimi?  
 Qarshimda ingragan bu jonlar kimlar?  
 Qullar o'lkasining insonlarimi?  
 Na uchun ularning tovushlarında  
 O'tgan asrlarning ohangi yig'lar?  
 Na uchun yozmishning o'ynashlarında  
 Har yurish ko'nglimni nishtardek tig'lar?  
 Kenglik xayollari uchdimi ko'kka,  
 Butun umidlarni yovlarmi ko'mdi?  
 Mangu tutqunlikka kirdimi o'lka,  
 Xayolda porlagan shamlarmi so'ldi?  
 Kechaning jon olg'ich qorong'ilig'i,  
 Hayot yulduzini xayolmi bildi?  
 Shuncha tutqunlarning haqi, haqligi  
 Bir hovuch tuproqqa qurbonmi bo'ldi?  
 Ohimning o'tidan chiqqan shu'lalar  
 Sharqning ko'kragida bir joy topmasmi?  
 Ko'ksimdan qisilib chiqqan na'ralar  
 Uxlagan dillarga siljib oqmasmi?  
 Har kecha ko'klarda o'ynagan yulduz  
 Aytar edi menga: "Erklik yulduzi –  
 Tutqin yellar uchun samo kunduzi.  
 Ko'ngilda qolg'usi uning bir izi".  
 U bir iz ko'zimning nurlaridan ham  
 Yuksakdir. Men uni o'pmak istaymen,  
 Agar topilmasa, bu yurtlardan ham  
 Ko'chib yiroqlarga ketmoq istaymen.  
 Yig'lagan, ingragan amal qizimi?  
 Ko'kdagi yulduzlar uning izimi?

## YONG'IN

*Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q.*

*Go'daklar nayza boshida...*

(Xabar.)

Nega mening qulog'imga tun va kun  
 Boyqushlarning shumli tovshi baqirar?  
 Nega menim borlig'img'a har o'yun  
 Va har kulgi og'u separ, o't qo'yar?  
 Ko'nglim kabi yiqiq uylar, qishloqlar,  
 Boyqushlarga buzuv ko'ksin ochganmi?  
 Ota-ona, tanish-bilish, o'rtoqlar  
 Yurtni tashlab, tog' va toshga qochqanmi?  
 Shunday katta bir o'lkada yonmagan,  
 Yiqilmagan, talanmagan uy yo'qmi?  
 Bir ko'z yo'qmi qonli yoshi tommagan,  
 Butun ko'ngil umidsizmi, sinqimmi?  
 Podalarning yaylovida bo'rilar  
 Qonga to'ygach, uvlaydilar mi ko'plashib,  
 Yiqiqlardan o'lkalar ni to'plashib,  
 O'tmi qo'yar alvastilar, parilar?  
 Tabiatning butun yomon tomoni  
 Shu o'lkaga faqat jilva qildimi?  
 Mo'minlarning oq vijdoni, imoni  
 Sham so'nganday tinsizgina so'ndimi?  
 Qilichlarning tillarida qizil qon,  
 Buloqlarning suvi yanglig' toshdimi?  
 Yalang bola, yalang go'dak – ma'sum jon  
 Nayzalarning boshlaridan oshdimi?  
 Keng yaylovga o'tmi ketdi, yondimi?  
 "Madaniyat" istagiga qondimi?

1921-yil

## UYQU

*("Bormaymen dedi" kuyiga)*

Jim turing, shovqinlamang, uyqu ichida ul pari,  
 Yurma, tek tur, ey shamol, yursang-da yur, biroz nari!  
 Ko'kda bir to'p qiz-malak uyqu kuyini boshladi.  
 Ilgarı chalgan tirik, jonli kuyini tashladi.  
 Bosh uchida aylana bir to'p farishta jimgina;  
 Ko'k elining tangrısı – oy ham qaraydir tinchgina.  
 Ul olos ko'zlar yumulgan... kuyni yondirgachgina,  
 Ko'p go'zal ko'zlarnı yumdirgach, uyaldirgachgina...  
 Charchagan, tolgan, umidsız ko'zlarım to'ymay qarar,  
 Har qarashda ko'nglima ming turli o'ylarnı solar...  
 Bu yotish, bu uyqu, bu qanday shirin, qanday go'zal,  
 Jonlanar, yuz ko'rsatar singan va yasangan amal.  
 U yotish, uyqu na yerda, na xayoliy ko'kda bor,  
 Bu go'zal sirli tomosha menda, men o'ksukda bor.  
 Jim turing. Shovqinlamang, uyqu ichında ul pari,  
 Ko'zlarım to'ymay qarar, borliq ko'rınma, tur nari...

*Toshkent, 1921-yil*

## KURASH

Baqirgʻuvchi, oʻkirguvchi bir tovush  
Botirlarning jon soʻragʻan tovshidir.  
Yiqitguvchi, agʻdarguvchi qoʻzgʻalish  
Yaqindagi zoʻr kurashning boshidir.  
Tentaklardek borar yerin bilolmay,  
Unda-bunda oʻzni urgan dushmandir.  
Keng yurakda tura olmay, sigʻolmay,  
Toshib ketkan yoʻqsildagi imondir.  
Ulugʻ, qattiq agʻdarguvchi bir kurash,  
Yo bor boʻlish, yo yoʻq boʻlish,  
Yoʻq - yarash!

*Toshkent, 1921-yil*

**KETDING!**

*Marhum Rahmatulla Sultonovga*

Yo'ldoshim, zamzama bo'lding-da, ketding,  
Bor eding, yo'qolding, o'lding-da, ketding,  
Gul eding, ochilmay so'lding-da, ketding,  
Yo'qlik dengiziga to'lding-da, ketding.  
Qichqirib orqangdan yugurdim, chopdim,  
G'ariblar mozorin istadim, topdim.  
Ko'ray deb so'ng chog'da telmurib boqdim.  
Sen esang yuzingni burding-da, ketding.  
Elingning tilagi yetimmi qoldi?  
Boshiga qayg'ini o'limmi soldi?  
Joningni tangrısı sevibmi oldi?  
Aytmading, og'zingni yumding-da, ketding.  
Boqchangg'a yosh qo'llar ekalar gullar,  
Ochilmoq ıstaylar lola, sumbullar,  
Firoq kuylarını kuylar bulbullar,  
Sen bo'lsa, yo'qliqqa urding-da, ketding,  
Ko'karmay, yasharmay qurding-da, ketding.

## O'LIMDAN KUCHLI

(Iqta)

– O'lim, sendan kuchli boshqa kuch bormi?  
 Tarafingdan bir marhamat bo'lganmi?  
 – Mendan kuchli, mendan quvvatlilar bor:  
 Mana, mendan hech qo'rqmaylar odamlar.

## NIMANING HIDI

Bilmaymen bu hidlar nimaning hidi?  
 Ruhim hidlash bilan anglag'an edi...  
 Mavjud jannatlarning eng go'zalida,  
 Eng go'zal malika atirlar sochdi,  
 Ko'klarning eng nozli, o'ynoq parisi  
 Atir qutisining og'zini ochdi.  
 Ko'ngilni muloyim qitiqlaguchi,  
 O'zida har turli sir saqlaguchi,  
 Bu hiddir, kim horgan, charchagan dilga  
 Yangi umid, toza quvvat berguchi...  
 Muhabbat bulbuli berildi tilga!  
 Uzulib-uzulib tig'lag'an ko'ngil,  
 Azaldan yumshoqlik ko'rmagan ko'ngil,  
 Gullik boqchalarda yurmagan ko'ngil,  
 O'zini gullarga urmagan ko'ngil  
 Azal malagidan bir hid hidladi,  
 Esridi, yiqildi, o'zi bilmadi...  
 Hidsiz tilaklarning totli umidi  
 Sonsiz havaslarni ko'nglimga soldi,  
 Oppoq malikaning tarqatgan hidi,  
 Tanimni, jonimni, ruhimni oldi!  
 Ey totli havaslar so'nguchi hidni  
 Ruhim hidlash bilan anglagan edi!..

**ISHQ YO'LI***(Erkin she'r)*

Sabrning kosasi to'lgandir,  
Bu og'ir ayriliq to'ydirg'an,  
Oh, qancha azoblar bo'lgandir,  
Go'zalim, xabaring bo'lmag'an!  
Och axir, ochgilkim ko'ksingni;  
Bir nafas o'zimni unutay.  
Unutmoq butunlay "o'zlik"ni,  
Oh, shundan najotni men topay.  
Kechalar... kechalar, oh sonsiz va oysiz.  
Bir kecha menga xuddi bir yildir.  
Qaytarib aytalar: Kechalar – ro'yosiz,  
Oldinda... "Ko'p og'ir bir yo'ldir!  
Ey darvesh, bu yo'lda birgina yo'lchi,  
Ketaver, bir kuni so'ngig'a yetarsen!.."

## YANA QOR

Yana qor! Oq kafan o'raldi yana,  
 Yana ko'k qo'ydi yerga parlarini.  
 Qarg'aning tillari burildi yana,  
 Yana qish chorladi nafarlarini...  
 Qop-qora dev kabi bulut yig'ini  
 Qoplab oldi yana quyosh yuzini.  
 Yotqizib yoz botir "yengish tug"ini,  
 Uyqudan ochmadi sira ko'zini.  
 Kutdilar yoz qizi – bahor oyining  
 Yangi kunda yasalgusi to'yini.  
 Yoz kabi turli gulga ko'p boyning  
 Dedilar: "Bo'lg'usi chechak oyini",  
 Qarigan qish boboy chidolmasdan,  
 To'y kutilganda qildi bir bosqin.  
 Nega ergashdi unga qorli bo'ron?  
 Ko'p qo'pol erdi, asti ul ozg'in.  
 Bir faqat qarg'alar qor ustida,  
 Qog'lashib qish boboyni olqaylar.  
 To'ngdirg'uvchi zahar sovuq tunda  
 Beva-bechoralar yomonlaylar.  
 Har yetim ko'zda tomchi-tomchi zahar,  
 Har faqir uyida ینگlayish va yig'ı.  
 Har sarig' yuzida so'nggi shu'la so'nar,  
 Har tomon, har tarafda bir qayg'i...  
 Yana qish... Qor kafan yopildi yana,  
 Qarg'aga to'y... O'yin topildi yana.



## TO'FON

*(Onado'li qishlog'ining muzaffar o'rdalariga )*

Ey Inonu, ey Sakariya, ey istiqlol erlari,  
 Milliy Misoq olingancha to'xtalmasdan ilgari!  
 Bilamizkim, jannat kabi tuprog'ingiz yovlarning  
 Go'daklarni yastag'uchi oyoqlari ostida.  
 Bilamizkim, tovushingiz haqsiz chiqqan davlarning,  
 Insofsizcha shovqinlarning, xurushlarning pastida.  
 Bilamizkim, "madaniyat" beshigida o'lturgan  
 Jallodlarning butun tama' va hislari sizlarda.  
 Bilamizkim, "ozodlik" deb shovqin qilgan, baqirg'an  
 Bo'rilarning och ko'zlari, oltin to'la yerlarda.  
 Bilamizkim, unlar sizni yashamoqqa qo'ymaylar,  
 Bilamizkim, qoningizni tomchi-tomchi ichalar,  
 Bilamizkim, unlar sira yuvosh xalqni sevmaylar,  
 Bilamizkim, tuproq uchun insonliqdan kechalar.  
 Bilamizkim, siz yo'qsullar so'ng chog'da  
 Shunday yomon dushmanlarning qo'lida  
 Mangu asir, mangu tutqun bo'lishni  
 Istamasdan qo'lga yarog' oldingiz.  
 Bilamizkim, qator-qator qishloqlar  
 Sinasiga non to'ldirg'an tuproqlar,  
 O't ichinda, shuning uchun o'lishni  
 Ortiq ko'rub, jonni o'tqa soldingiz.  
 Jonni qong'a - o'qqa o'tqa soldingiz.  
 Faqat bu kun totli bir o'ch oldingiz,  
 Yana bir qo'r tarixlarda qoldingiz!  
 Ey istiqlol, ey Sakariya, ey Inonu erlari,  
 Yur, mazlumlar to'fonining o'ch olg'uchi sellari!

## YASHAYISH

Og'ir-og'ir va faqat qayg'idan yiroq uyqu,  
Nechun uzoqlarga qochding, ki ko'p yomondir bu!  
Ko'zum ochildi, biroq ko'rmadim go'zallikni,  
Ko'ngulda yosh ila ko'rdim butun tubanlikni...  
Yo'q ermas erdi go'zallik bilan chiroylilik,  
Faqat ular tubida jilvalandi hayvonlik...  
Kulib qarar edi dunyosi goh-gohlari  
Faqat kulushlar ichinda, fig'on va ohlari!  
Nechun ochildi ko'zim, qayga ketdi uyqularim?  
Bu uyg'onishda to'lib toshdi qayg'ularim...

## KULMAK ISTADING

Ne uchun kulmak istading, go'zalim?  
 Yo'qsa so'lmoqdi lablaringning ishi...  
 Ne uchun tishlaringning berkinishi  
 Bu yo'li bitmak istadi, malagim?  
 Sen, ki kulmak bilan vujudimni  
 Ba'zida sevgiga ko'tarading.  
 So'ngra birdan yana cho'kar erding  
 Eski, behuda, keng xayollaringga.  
 Ol qo'limni bir oz-da qo'llaringga,  
 Ko'kka behuda qo'yma dudimni!  
 Sevgi – dard, sevguvchi-da – bir tentak.  
 Sen-da tentakdan e'tiroz etasen.  
 Qochasen. Oh, faqat odosh ketasen.  
 Istaging bormi, kim borib yetasen?  
 Qayda bo'lsang-da, g'irt bo'g'ar sevmak,  
 Sevgidan kechmak istasang, go'zalim,  
 Tashla, behuda o'ydir ul, azalim.  
 Menga bir kulmak istading, malagim.  
 Kul, ki kulsun kulolmagan tilagim!

*Buxoro (Harbiy xastaxona),  
 1922-yil.*

### YOTOQDAN...

Og'riq oldi, qayg'u oldi, zor oldi,  
 So'nuk ko'zli, bag'ri ezik yor qoldi.  
 Qayda qoldi Mulla Bozor – devona,  
 Qulog'imga o'qir edi afsona:  
 Ezgu joyga oq ot bilan kirgan(i)ni,  
 Dil ka'basin o'qlar bilan buzgan(i)ni...  
 Yiqiqlardan, qabrlardan tovushlar;  
 O'luklarning salomini o'qiylar.  
 Borlig'imni qo'rqinch o'tlar hovuchlar,  
 Xonaqohlar fano to'ri to'qiylar.  
 Sirli sirdan qilday bo'lsin xabar yo'q,  
 Yo'qsa ul-da o'tganlardek so'ndimi?  
 Oq deb, pok deb yurganlarda dil buzuq,  
 Yo'qsa fano maysalari undimi?  
 Alam oldi, firoy oldi, qon oldi,  
 Amal qoldi... Ko'zi yoshli jon qoldi.

*Buxoro (Harbiy xastaxona)*

1922-yil.

### QILICH VA QON

Qilichini qinda qolmasin, chiqsin,  
 Tig'ig'a tillarim tomizsin qon.  
 Amalim qonli tig'im o'psun,  
 Qolmasin qonni sevmagan bir jon.

## QIZARISH

Nechun qizardi yuzing qip-qizil anor yanglig',  
 Dilingda o'ynoqi bir sharpa o'tdimi shoshilish?  
 Ko'zingda kuchli havaslarning izlari qolmish...  
 Qizarmog'ing, yo'q esa, sirli ipkam bog'lig'?  
 Qizarg'aningda labingdan-da bir tilak uchdi,  
 Uning qanotlari ko'nglimga g'amli yel urdi.  
 Oyimni ul tilagin birla ilgari surdi  
 Va ko kda bir to'da aldamchi sevgilar quchdi...  
 Nechun, nechun yana ko'zlarda tomchilar o'ynar?  
 Nechun, nechun bu alamlarni ko'mmadik birga?  
 Nechun, ularni tashiylikmi so'ng qo'nuq – go'rga?  
 Nechun yuzing yana so'lg'un, nechun uzun o'ylar?  
 Labingda birgina so'z bor, faqat deya olmaysen,  
 Nechun uni demakka kechmishingmi qo'ymaydir?  
 Nechun meni ko'rganda endi so'zlay olmaysen?  
 Nechun sening qarashing o'yga hech to'yolmaydir?  
 Biroz... biroz so'zla. Anglatib ber sen,  
 Labingda mangu yopiq qolmasun u birgina so'z.  
 Go'zal chechakdek ochilsun so'nuk va so'lg'in yuz  
 Va men-da dardingga bir chora, bir shifo topayin.  
 Labingda qolsa u so'zlar yana o'shal qizarish,  
 Yana ko'nglingda haromi va o'ynoqi sharpa,  
 Yana so'nish va o'chish... mangu, doimo qarg'ish,  
 Bitar, ketar shu balolar... labingga jon kirsar!  
 Nechun yuzingda qizil cho'g' kabi yonish, qizarish?  
 Yararmi menga-da bilmak, nechun, nechun bu ish?

*Buxoro (Harbiy xastaxona)*

*1922-yil.*

### OG'RIGANDA

Bo'g'iq, qisiq, asabiy bir ko'ngil bilan tun va kun  
To'shakda, o'ylar orasida ingrab yotmak  
Og'ir... qiyin...  
Bu yotishning so'ngi, so'ngi kelsun!  
Yozilmaganmi bu tunlar so'ngida tong otmak?  
Ko'zimda erta va kech bir yig'in xiyol ochilar,  
Xayol bilan ko'raman, ko'k yuzi bulutli kabi,  
Butun ko'ngil va yuraklar olovli, o'tli kabi;  
Bulut ko'zidan esa yerga og'u – yosh sochilar.  
Mening o'yimmi qora? Yoki yurt ko'kida bulut,  
Quyuq bulut to'dasi qonli yosh to'kib yig'lar?  
Menim bu xasta dilimni yana nechun tig'lar?  
Menim-da ko'ksima boqmoqchi istar ul bir o't?  
Bo'g'iq, qisiq bu ko'ngil kuchli o't bilan yonadir,  
U o't orasida yurtning xayoli jonlanadir..

*Buxoro, 1922-yil*

## QISH KECHALARI

*(Ruschadan)*

Bolalar, sizlarga  
Ko'p yaxshidir qishki tun.  
Erinibgina yotasiz,  
Tancha issiq, cho'g' qizg'in.  
Goh-goh chiqib tanchadan  
Quvalashib o'ynaysiz.  
Esga tushgan o'yinning  
Hech birini qo'ymaysiz.  
Shovqin qilib, baqirib,  
Chaqirasiz, janglaysiz.  
Eng so'ng yotib kampirning  
Cho'pchagini tinglaysiz.  
Tashqarida qor-bo'ron,  
Zahar to'kar qora qish.  
Undan qo'rqib to'xtalmas  
Sizda o'ynash va kulish.  
Ammo bu xil sevinchlar  
Hammada ham bo'lmaydi.  
Hammaning ham bolasi  
Qishda o'ynab-kulmaydi.  
Yer yuzida juda ko'p  
Yo'qsil, yetim bolalar.  
Bechoralar nonga ham  
Yaxshigina to'ymaylar.  
Ba'zilarning yosh chog'da  
Onalari o'lgandir.

Shundoq qilib yoshlikdan  
Gul yuzlari so'lgandir.  
Ular uchun na tancha,  
Na o'tin bor va na cho'g'.  
Na cho'pchaklar aytgali,  
Na sevgali kishi yo'q.  
Shundoqlarni ko'rsangiz,  
Ko'ngillarin ko'taring.  
Yo aka, yo uka deb  
Birga turing, bir yuring.

*Chorjo'y, 1922-yil*



**O'TLI SUV**

Zo'r dengizning to'lqinidir, bag'rimda  
Yuz yillarning qonli qo'rqinch izi bor.  
Yumshoq suvdan biri kirgan og'zida  
Shafqat bilmas isyonlarning so'zi bor!  
Qanday mag'rur ahmoqlar, kim tinch yerda  
Tot olurlar uni qarg'ab, so'kmoqdan.  
Yo'lchi bo'lib, yo'lga chiqqach, bu yerda  
Jon berarlar dahshatidan, qo'rqmoqdan.  
Qora bulut ko'zlaridan ko'p choqlar  
Hovuch-hovuch yangi kuchlar oladir.  
Ey tinch yerda kular yuzli o'ynoqlar,  
Sizga yolg'iz qovog'ini soladir.  
Savatingiz, xurjuningiz ko'rdikim  
Ko'z yoshlari qayg'ular-la to'lmishdir.  
Uchib o'tkan yo'lchılardan so'rdikim  
Qo'lingizda jon yigitlar o'lmishdir.  
Ko'pirar ul, hovliqar ul, toshar ul,  
Go'ringizdan na'ra tortib oshar ul!..

*Toshkent, 1922-yil*

### SEVGI VA SALTANAT

Keng dalada kiyik o'ynar,  
Kiyik ko'zin yigit o'ylar,  
Kiyik ko'zi ko'ngil tortar,  
Oshiq ko'rsa dardi ortar.  
Kiyik ko'zi o'ynoq bo'lmas,  
Yigit qancha boqsa to'ymas,  
Yosh yigitning ishqı o'lmas,  
Ketsa... sira qaytib kelmas.  
Sevsang sevgin yoshligingda,  
Chin sevgiga boshliging-da,  
Bir sevgidan so'ngra sevmak,  
Sevgini aldamoq demak.  
O'rdalarda sevgı bo'lmas,  
Shahzodalar seva bilmas.  
Sevgı asil yaylovlarda,  
Hunarmidir yov-yovlarda?  
Tangrı sevgı yaratg'ondır,  
Yaylovlarga tarqatg'ondır,  
O'rdalari bek – xonlarning  
Uyasidir yomonlarning.

1922-yil

## SHU KUNDA

Istaginga yetar ekan, qanotlaring sindimi,  
Ey ko'nglimning bulbuli?  
Senga qarshi kulib turgan go'zal chechak tindimi,  
Tashladimi bir yo'li?  
Havo yorg'an ko'kragingni sevgi yeli tildimi,  
Qon to'lami har tomon?  
Ko'zlaringga ayriliqning ıplarını ildimi?..  
Shu qilg'ani ko'p yomon.  
Yo erkinlab hidlagali bermaylarmi gulingni,  
To'salarmi yo'lingni?  
Gul o'zimi ko'zlaringdan ko'zlarini qochirdi,  
Yo'qliklarga yashirdi?  
Shu yulingan parlaring-la ucholmassan, yo'qsil qush,  
U umidlar havosidan endi biroz tuban tush!..

*Toshkent, 1922-yil*

## SENDAN YIROQDA...

Yiroqlashdim, uzoqlashdim bir necha kun sendan,  
Hol so'rab ko'r mendan,  
Nega muncha og'ir keldi bu yiroqliq menga,  
Anglatayin senga!  
Chunki sening qarashingda men ayriligni o'ylamay  
Ko'zlarimga tikildim.  
O'zligimga, borlig'img'a baho qo'ymay, sanlamay  
yerga qadar egildim.  
U ko'zlarning toshqinida baliq kabi suzganmen.  
Ayriligni o'ylaymi?  
Boshqa dunyo, bosqa o'ydan bog'lanishni uzganmen.  
Senga qarab to'yaymi?  
Mana endi bir nacha kun sendan yiroq qoldim-da,  
Qayg'ularg'a ko'mildim,  
Ayriliqda qayg'u ichra ulushimni oldim-da,  
Ko'zlaringni xo'b bildim.  
Endi senga ko'ngil dardini butkul ochib beraymi?  
Istaysanmi sen shuni?  
Istamasang, qistamaymen... Oldin seni ko'raymi,  
So'ng aytaymi men uni?  
Yaxshi... endi qanotimni rostlayin,  
Uchib borib oldin seni topayin,  
So'ng dardimni ochayin.

*Toshkent, 1922-yil*

**GO'ZAL FARG'ONA**

Ey go'zal Farg'ona, qonli ko'yilagingdan aylanay,  
Tarqalib ketgan qora, vahshiy sochingga bog'lanay.  
Vahshiy bir o'rmon kabi bag'ringni bosmishtir qamish,  
Ko'zlaringda hech ko'rinmas bir olov, bir o't yonish.  
Keng cho'ziq yaylovlaring yovlarga ochmish ko'ksini,  
Bir qora parda bosibdir tuprog'ingning ustini.  
Ko'zlaring so'lgan, o'lik ruhing bilan boqding menga,  
Qutulishning yulduzi aslo ko'rinmasmi senga?  
Ul baland zo'r tog'laring nega to'solmas yov yo'lin?  
Yo'qmidir o'tkur qilich kesmakka yovlarning qo'lin?  
Biz butun ojiz, zaif, bag'ri ezilgan sen uchun,  
Bul qadar qonlar to'kildi ul daxidir sen uchun.  
Yig'lama, yurtim, agarchi bul kuningda yo'q bahor,  
Kelgusi kunlarda baxting yulduzi o'ynab qolar.

**GO'ZAL TURKISTON**

Go'zal Turkiston, senga ne bo'ldi?  
Sahar vaqtida gullaring so'ldi.  
Chamanlar harbod, qushlar ham faryod,  
Hammasi mahzun. Bo'lmasmi dil shod?  
Bilmam, ne uchun qushlar uchmas bog'chalaringda?  
Birligimizning tebranmas tog'i,  
Umidimizning so'nmas chirog'i.  
Birlash, ey xalqim, kelgandir chog'i,  
Bezansin endi Turkiston bog'i.  
Qo'zg'al, xalqim, yetar shuncha jabr-u jafolar!  
Ol bayrog'ingni, qalbing uyg'onsin,  
Qullik, asorat – barchasi yonsin.  
Qur yangi davlat, yovlar o'rtansin.  
O'sib Turkiston, qaddin ko'tarsin,  
Yayrab, yashnab o'z Vatanning gul bog'laringda!

## BARG

Jonlandi, yashardi, ko'kardi qarashim,  
 O'zimda bir turli erkinlik sezamen.  
 Ko'nglimda qolmadi shu tinda g'am-g'ashim,  
 Umidning ipaklik qilini cho'zamen.  
 Shu chog'da, shu bog'da har narsa yumshoqdir,  
 Har narsa ko'kargan, har narsa yashnaydir.  
 Shu bog'da, shu chog'da har narsa oppoqdir,  
 Quyosh-da nurini hovuchlab tashlaydir.  
 Ariqda suvlarning o'ynoqi qo'shigi  
 Shoxlarda uxlagan barglarni uyg'otdi.  
 Ayniqsa, shamolning u yumshoq sho'xligi  
 Shoxlarda barglarni titratdi, o'ynatdi.  
 Qip-qizil qanotli kapalak, yo'lida  
 Uchratdi chiroyli chizanak qizini,  
 Kapalak tikilgach, u qizcha qo'lida  
 Ushlagan yaproq-la berkitdi yuzini.  
 Oltinli qo'ng'izni bolalar ushlab, shu  
 Ip bilan ko'klarga uchirib o'ynaylar.  
 Qullikni sevmagan yo'qsilni kuchlashib,  
 Nimaga o'zining erkiga qo'ymaylar.  
 Lablarim shu tunda chanqag'an, qizarg'an.  
 Kavsarning suvidan sharoblar istamas.  
 Farishta qiliqli, malika qizlardan  
 Chanqoqni bosuvchi bir o'pich so'ramas.  
 Ko'klardan malaklar qiz bo'lib tushsalar.  
 Yana men o'tlarni qo'ynimga qo'ymaymen.  
 Qo'ynimga to'lsalar, qo'ynimdan toshsalar  
 Gullarning hidlari... Men sira to'ymaymen.  
 O'pmaymen shu chog'da farishta – malakni,  
 O'pamen butoqda titragan bir bargni...

*Buxoro, 1922-yil*

**NIMA?**

Bir-ikki yaxshi so'z aytding,  
Holimni anglaganingmi?  
Ko'zlarni qayg'ili etding  
Holimg'a yig'lag'aningmi?  
Yotliklar bitdimi endi,  
Ortiq men senga yaqinmi?  
Qarg'ishlar bitdimi endi,  
Oldimmi eski haqqimni?  
To'ydirgich, qop-qora tunlar  
Yopqichni oldimi bizdan?  
Yurgaymi yog'duli kunlar  
Sen boskan "sevgili" izdan?  
Ko'klamning oldini to'skan  
Zulmatlik qishmi yiqildi?  
Bo'ynig'a lolalar oskan  
Ko'klammi o'rniga keldi?  
Ko'nglimda sirli qoqilg'an  
Ko'nglumning sarposidurmi?  
Yo ko'kda yanglish otilg'an  
Bir yulduz kurrasidirmi?  
Bir so'zla, birgina so'zla,  
Qoldirma shubha ko'ngilda!

*Toshkent, 1922-yil*



**VIJDON ERKI****(Tutqunlarga)**

Ey tutqunlar, ey ezilgan,  
Ey qiynalg'an yo'qsul ellar!  
Ey umidsiz, eh chizilg'an  
Dor oldiga... oppoq dillar!  
Ey bevalar, bechoralar,  
Ey bog'lang'an kishanlarga,  
Ey erk uchun ovoralar,  
Ko'p yalinmang siz ularg'a!  
Bo'rilardan omon kutmak  
Tentaklarning ishidir ul.  
Har ma'nini hatlab o'tmak –  
Turmushda eng to'g'ri bir yo'l.  
Zulm oldida har bir narsa,  
Ehtimolki, bo'ynin egar.  
Agar zulm avjga kelsa,  
Ko'k boshi-da yerga tegar.  
Hayvonlarga, insonlarga  
Zolim ega bo'lmay qolmas.  
Faqat erkin vijdonlarga  
Ega bo'lmak mumkin ermas!..

*Samarqand, 1922-yil*

## SHARAFLIK XIZMAT

*O'zbek sahnasining qiymatli  
san'atkori Sa'diya Tutashqa*

Ey, yo'qsullar sahnasida eng qiymatli san'atkor,  
 Ey, zang bosqan ko'ngillarni oqartquchi malika!  
 Bu kun seni ko'nglum butun borlig'i-la olqishlar;  
 Faqat, qancha olqish, hurmat qilinsa-da oz senga!  
 O'zbek qizi o'z og'zida aytolmagan so'zini,  
 Sening o'tkir tiling bilan eshittirdi eliga,  
 O'zbek qizi sil oqartqan, so'lg'un, g'amli yuzini  
 Sen orqali ko'rsatdi-da, qutultirish yo'lig'a.  
 Bu kun yurtning har yerida o'zni tikkan yigitlar  
 U qop-qora pardalarg'a: "Yirtil, endi, bas!" deyilar.  
 Ey pardalar, chimmatlarning ostidagi qayg'uni  
 Tirik, jonli shakli bilan el ko'ziga ko'rsatkan;  
 Ey, devorlar orqasida yig'laguvchi cholg'ini  
 Quloqlarga eshittirib, shafqat hissi qo'zg'atkan,  
 Ey, san'atning eng havaslik, eng berilgan malagi,  
 Bu kun senda sahnamizning barcha umid, tilagi!  
 O'zbek qizi yana ko'p yil kishanlardan qutulmas,  
 Ko'z yoshlari yana ko'p yil o'z yuziga to'kilur.  
 Uning yuzi yana ko'p yil shodlik ko'rmas, ochilmas,  
 Yana ko'p yil tovushlari qorong'ida yo'q bo'lur.  
 Shuning uchun mendan senga eng samimiy olqishlar,  
 Ey yo'qsullar sahnasida eng qiymatli san'atkor...

*Toshkent, 1922-yil*

## YUPANMOQ ISTAGI

Bilmadim ko'nglimni yupatgay kimlar:  
 Tog'larmi, toshlarmi yo oqar suvlar.  
 Yoki kishanlardan bo'shalgan qullar,  
 Yoki sevilmadan tashlangan tullar?  
 Yoki oydin tunda ko'zimni olmay  
 Ko'klardan yupatqich yulduz axtaray?!  
 Yoki tong chog'ida sabo yupatg'ay,  
 Yoki oydan tomgan vafosiz nurlar?  
 Yoki ko'z yoshidan yig'ilgan bir ko'l  
 Bo'yida egilgan tolda bir bulbul  
 Sayrasa, yig'lasa, ma'shuqasi gul  
 Kulganda yupatgay ko'ldagi hurlar?  
 Charchagan yo'lovchi yo'ldan adashsa,  
 Tekis yo'l qolsa-da, tog'larni oshsa,  
 Yo'lni ko'rsatuvchi yulduz-da qochsa,  
 Shunda yupatgaymi yalang'och cho'llar?  
 Erkin dalalarning erkin sultoni,  
 Sonsiz podalarning yolg'iz cho'poni  
 Nay chalib tog'lardan istasa yorni,  
 Balki yupatgusi "yor" degan kuylar?  
 Turmushda, xayolda... har bir narsada  
 Yolg'iz aldanishni ko'rgan bir banda  
 Borliqqa qarq'ishlar yog'dirgan tanda  
 Balki yupatgusi u achchiq so'zlar?  
 Dengizlar qaynasa, toshsa suvlari,  
 Kesilsa yo'lchining istak yo'llari,  
 Dengizga aylansa, o'ng va so'llari,  
 Balki yupatg'usi ho'llangan ko'zlar?  
 Ko'ngilda uyg'onsa yengil havaslar,  
 Uzilsa, buzilsa oltin qafaslar,  
 Birga ichishsalar bir to'da mastlar,

Balkı yupatgaylar o'ynoqi qizlar?  
O'ylangan o'ylarga ko'ngil yupanmas,  
Ko'ngilning ıstagi o'y bilan qonmas,  
Aytarlar bu tunda yorug' sham yonmas,  
Chaqmasa gugurtıni asl o'g'ıllar...

*Jumabozor stansiyası  
(O'rta Osiyo temir yo'li),  
1922-yil*

## KETKANINGDA

*Kleopatraga*

Ketdingmi manguga tashlab,  
Qoldimmi qayg'ularim-la?  
Hijronning kuyini boshlab  
Yig'lovchi cholg'ularim-la?  
Sevgimdan so'nggi malaklar  
To'p-to'g'ri ko'kkami uchdi?  
Ko'nglimdan toza tilaklar  
Yovningmi bag'rig'a tushdi?  
Ortiq sen mendan uzoqda  
Ko'zlarni o'ynatasenmi?  
Ortiq sen boshqa buloqda  
Dillarni qaynatasenmi?  
Ortiq sen undagi bog'da,  
Ortiq men yakkami qoldim?  
Faryod yo'q... barcha jahon jim,  
Yer yutsa yaxshi shu chog'da!...  
Ketdingmi sen meni tashlab?  
Qoldimmi qayg'umni boshlab?

*Toshkent, 1922-yil*

### QO'ZG'ALISH

Ey, sen meni haqir ko'rgan, tuban degan afandi!  
Ey, ustimda bir umrga xo'ja bo'lmoq istagan,  
Ey, bo'ynimg'a kishan solib, halokatka sudragan,  
Ko'zlaringni zaharlatib o'ynatmag'il, bas endi!  
Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo'lkim uzilur,  
Tomirimda qo'zg'alishning vahshiy qoni ko'purdi.  
Eski fikr, an'analar endi butkul uzildi,  
Yo bitarmen, yoki sening saltanating buzilur!  
Ey, sen meni qul o'rnida ishlatguvchi afandi,  
Titra, qo'rq, kim bog'liq quling bosh ko'targan kuch endi!

*Toshkent, 1922-yil*

## SATANG

Qop-qora sochidan ikkita gajak  
Buralib-buralib yuziga tushmish.  
Qolg'anlari yana bo'lakma-bo'lak  
Belidan yilondak yerga cho'zilmish.  
Uning yuzlarida boshqa qizlardek  
Ketsiz qayg'ularning ızları yo'qdir.  
Balki erkda o'sgan erka qizlardek  
To'lg'in yuzlarida doim sho'xlıkdir.  
Ko'zlari kulishdan boshqani bilmas,  
Har doim og'zidan shakar to'kilur.  
Sevgıdan boshqaga bo'yın egilmas,  
Oldida so'fining ahdi buzilur..  
Ixcham barmoqlari qilda yugursa,  
Jonsiz qillardagi qush kabı sayrar.  
Yengil oyoqlari yo'rg'alab ketsa,  
Sil bo'lgan ko'ngil ham ochilar, yayrar!  
Qizil yuzlarida ikki gajakcha..  
Ayniqsa, ko'p ko'rkam bo'lg'an shu kecha!..

*Toshkent, 1922-yil*

**KO'NGIL**

Ko'ngil, sen munchalar nega  
Kishanlar birla do'stlashding?  
Na faryoding, na doding bor,  
Nechun sen muncha sustlashding?  
Haqorat dilni og'ritmas,  
Tubanlik mangu ketmasmi?  
Kishanlar parchalanmasmi?  
Qilichlar endi sinmasmi?  
Tiriksen, o'lmagansen,  
Sen-da odam, sen-da insonsen.  
Kishan kiyma,  
Bo'yin egma,  
Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!

*Toshkent, 1922-yil*

**QIZLARNING DAFTARIGA**

Ko'ngil, tinmas ko'ngil, endi yetar, ko'z tikma gullarga,  
Go'zaldir, yoshdir ul gullar... faqat aldanma unlarga,  
Ki qizg'anmas, ko'ngul qo'ymas seningdek oq ko'ngullarga!

*1922-yil*



\* \* \*

*(Aleksandr Blokdan)*

Ko'ngil jimdir, sovuq ko'kda,  
Qarab ung'a yonib turg'an  
Hanuz-holo u yulduzlar.  
Butun atrof va har yoqda,  
"Xan-oltin" deb fig'on qilg'an  
Talashchi, g'alvachi ellar.  
U jim, lekin fig'onlarga  
Quloq bergan va ko'z tikkan  
Uzoqlarg'a, yiroqlarg'a...

*Toshkent, 1922-yil*

## ODAM VA QUSH

*(Ruschadan)*

Go'zal qushlar! Mening munda borligim,  
Hech sababsiz qo'rqitadir sizlarni!  
Sira qo'rqmang! Sayray bering erkinlab,  
Ko'nglingizda yashrin yotgan sirlarni!  
Ham dalada, ham boqchada - tinch bo'ling!  
Tutmoq uchun sizga tuzoq qo'ymayman.  
Erkinlikda erkli bo'lib yashashning  
Qimmatini men o'zim ham bilaman!..

*Toshkent, 1922-yil*

## KISHAN

Kishan, gavdamdagi izlar bukun ham bitkani yo'qdir!  
Temir barmoqlaringning dog'i butkul ketkani yo'qdir!

Na mudhish, na sovuq manhus, qizg'anmas quchog'ing bor!  
Bashar tarixining har sahfasida<sup>1</sup> qonli dog'ing bor!

Yumilmas ko'zlarining har biri bir elni qahr aylar,  
Faqat bir borlig'ingdir, kim butun borliqni zahr aylar!

Qulf birlan sening erkingda ko'p yillar qolib ketdim...  
Faqat har tebranishdan qutulishlikni umid etdim.

Kishan, gavdamdagi dog'ing hanuz ham bitkani yo'qdir,  
Faqat butkul qutulmoqqa umidim endi ortiqdir!..

*Toshkent, 1922-yil*

---

<sup>1</sup> "D"ni "id" (l)ga aylantirib, qattiqroq cho'zib o'qimoq lozim ("sahfasi-da" kabi), yo'qsa, aruz o'rnida yozilgan bu parchaning vazni buziladi. Bu parchada shunga o'xshagan joylar yana bir muncha bor, umuman aruz vaznida yozilgan parchalarda shu qoida kuzatilmog'i kerak.

## QISH OLDIDA

Ko'klam ketidan yozni uzatdik, u-da ketdi,  
 Kuzning-da bulutli, qora davri kelib o'tdi.  
 Barglar yana sarg'aydi, yana to'kildi, yana bo'shliq...  
 Qushlar yana to'p-to'p qochalar... Qarg'a faqat shod!  
 Har narsada bir qayg'i, kadar, rangi so'lishliq....  
 Ichdangina, tinsizgina har narsada bir "dod"...  
 Dunyo... yaratilganda xunuk, chirkın emish-da,  
 Ko'klam bila yoz unga kiyimlar kiygizarmish.  
 Kuz... hech ko'ra olmas, ichi tor, qizg'in emish-da,  
 Har narsani so'ldirguvchi qo'lni tegizarmish.  
 Kuz davrida dunyo kiyimi qolmas emish-da,  
 Qish chog'ida unga qaramoqlik-da yomonmish...  
 Bir qarg'a faqat ko'zlarini olmas emish-da,  
 Qarg'a shu uchun qishda kuyarmish-da, yonarmish...  
 Holbuki, na kuzdan va na qishdan yuz o'g'irmay,  
 Har qaysisidan ko'nglim uchun topdim o'yinlar.  
 Yozlar kabi qishlarda-da g'am rangini ko'rmay,  
 O'tmakda quyosh qo'ynida kunlar kabi tunlar!  
 Dunyo kiyimi yirtiq esa qayg'i kerakmas,  
 Kunning birida yerga tushar paxta kabi qor.  
 Dunyo taniga qor kiyimi nega kelishmas?  
 Oqlik ichida qop-qora ko'z... o't kabi chaqnar!  
 Ko'klam kabi qishning-da go'zal gullari bordir.  
 Yozlar kabi qishlarda-da oltin kechalar bor.  
 Ko'klam kabi qishning-da go'zal tunlari bordir.  
 Qishlarda-da yozlar kabi jon - mug'bachalar bor!  
 Ko'klam-da ketib, yoz-da bitib, kuz-da tugaldi,  
 Ey qish bobo, chiq o'rtaga, navbat senga keldi!

*Toshkent, 1922-yil*

## ALAMZADALAR...

*"O'likka yig'lash man' qilinsun"*

Mahkama qarori

Voy, bu qanday zamonki, qanday ish?  
 Yig'lamoq endi yo'q bo'lar ermish...  
 Bobom o'lganda biz yetim boshliq,  
 To'nimiz ustidan chizgib belni,  
 Ushladik tol tayoqni, ko'z yoshliq,  
 Yig'ladik... yig'latib butun elni...  
 Bizni ko'rganda har kishi dedikim:  
 "Barakalla, kuyib, yonib yig'lar!"  
 Bizda lekin g'araz bo'lak edikim,  
 Muni aqli to'la kishi onglar!  
 Bobomiz o'ldi, ketdi... rahmatlik,  
 O'zi ham ko'b yomon qarib edi-da...  
 O'lishi bo'ldi bizga zahmatlik,  
 Bu mahalla-ko'yi yomon edi-da!  
 Bo'yinimizdan botib ketib qarzga  
 Hovli-joylarni balki sotg'aymiz,  
 So'ngra bor-yo'g'imizni sarf qilib arzga,  
 Qozining yo'llarida yotg'aymiz...  
 Voy bunday qaror, bu qanday ish?  
 Shu balolarini yo'q bo'lar emish?..

1922-yil

## ERKINLIK ISTAGI

Erkin ko'nglim chiday olmas bu sidiq,  
 Bu bog'lang'an, bu "egalik" turmushda.  
 Agar shunday keta bersa, bu aniq,  
 Tilak uchun qila olmas bir ish-da!  
 Shuncha choqlar chidab kelgan ko'nglimga  
 Bu kungina o'z chizig'i tor keldi.  
 Go'yo uning qo'l tegmagan bo'yniga  
 Ip bog'lanib, juda qattiq tortildi.  
 Ul intilib, ul urinib yotadur,  
 Tor qafasdan qutqarg'ali o'zini.  
 Tevarakka achchiq qarg'ish otadir,  
 Bilmadimkim qon bosganmi ko'zini?  
 Bundan burun ul ko'p og'ir tinlarni  
 Chidam bilan, tinchlik bilan o'tkardi.  
 Qarshisida avrab turgan jinlarni  
 Ko'ra turib quramadi, ketkardi,  
 Shuning uchun tubanlarning tubani  
 Yovuz, buzuq kishilar ham erkincha  
 Talarlardi, emarlardi-da uni  
 So'karlardi orqasidan har kecha.  
 Ul qanday tor, qanday sidiq yerlarda  
 Qanday buzuq chiziqlarda bo'lmadi?  
 Ul qanday xor, qanday tuban yerlarda  
 Qilini ham qimirlatmay turmadi?  
 Endi ul-da tor chiziqdan bezgandir,  
 Qaytib unga kirishlikni istamas,  
 U ma'nosiz "egaliklar" ezgandir,  
 Ular bilan bir tin bo'lsin turolmas.  
 Ul erkinklik, o'zboshlilik istaydir,  
 Ketga qarab - o'lim bo'lsun - ketmaydir.

## BINAFFSHA

*Yoz qayg'usi*

Binafsha senmisen, binafsha senmi,  
 Ko'chada oqchaga sotilgan.  
 Binafsha menmanmi, binafsha menmi,  
 Sevgingga, qayg'ungga tutilgan?  
 Binafsha, nimaga birozroq ochilmay,  
 Bir erkin kulmasdan uzilding?  
 Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,  
 Yerlarga egilding, cho'zilding?  
 Binafsha,  
 Ayt menga,  
 Kimlardir ularkim  
 Ignalar bag'ringga sanchalar?  
 Binafsha,  
 Bir so'yla,  
 U qanday qo'llarkim  
 Uzalar, hidlaylar, yancharlar?  
 Binafsha, shunchalar chiroyli yuzing bor,  
 Nimaga uzoqroq kulmaysen?  
 Binafsha, shunchalar tortguvchi tusing bor,  
 Ko'nglimga erkinlik to'kmaysen?  
 Binafsha, yig'lama, binafsha, kel beri,  
 Qayg'ingni qayg'umg'a qo'shg'il,  
 Binafsha, sening-chun ko'kragim – erk yeri,  
 Bu yerdan ko'klarga uchg'il!  
 Binafsha, go'zalim, qayg'ilim kelmaysen,  
 Qayg'ing zo'r, qayg'imni bilmaysen,  
 Menga bir kulmaysen!..

1922-yil

## KO'KLAM QAYG'USI

Ey qorong'i, uzun qishning xayoli  
 Ko'klam chog'i ko'zlarimda o'ynama!  
 Ayriqliqning chidab bo'lmas maloli  
 Ko'kat, maysa yuzlarida qaynama!  
 Biroz... biroz ko'ngil beray ko'klamda  
 Shaftolining go'zal, qizil yuziga.  
 Biroz... biroz aldanayin ko'nglimda  
 Bosh chiqarg'an yigitlikning so'ziga.  
 Qarshimdag'i kulib turg'an yumshoq qiz,  
 Ko'm-ko'k maysa o'rtasida bir guldir.  
 Ko'p yig'ladim... yoshlarimni qator chiz  
 Va qarshimda go'zal qizni bir kuldir!  
 Ko'klam chog'i ... sayroq bulbul sayramas,  
 Ne uchunkim tamburimning tili yo'q.  
 U go'zal qiz chin qarash-la qaramas,  
 Ne uchunkim umidimning yo'li yo'q.  
 Tillarimda har ko'klamning qo'shig'i,  
 Yuragimda har go'zalning sevgisi,  
 Ko'zlarimda har qayg'idan bir yig'i,  
 Yuzlarimda aldanishning belgisi...  
 Yolg'iz menmi ko'klam chog'i yig'lag'an?  
 Yolg'iz menmi har umidda aldag'an?  
 Yolg'iz menmi ko'kragini tig'lag'an?  
 Yolg'iz menmi sevinch bilan bo'lmag'an?  
 Ey ko'klamning ko'z tortg'uchi kelini,  
 Nima uchun yig'latasen bir meni?..

1922-yil

**TUN***Erkin she'r***I**

Tun yomon, tun qorongʻi,  
Tun qoʻrqinch, tun azob!  
Tunda eski va yangi  
Har narsa xayol va sarob!  
Tunning uzunligi,  
Chuqurligi koʻp yomon.  
Tunning buzuqligi,  
Yolgʻizligi beomon!  
Tunda har narsaning tovushi  
Yiroqdan guvullab kelar,  
Tunda koʻp chogʻlar yuzimga  
Jinlarning qoʻllari urilar.  
Oh, tunning qalin pardasi  
Qanday gunohlarni yashirmas,  
Oh, tunning tovushsiz naʼrasi  
Hech jonni qoʻrqitmay qolmas.  
Tunning yashirin quchoqlarida  
Oʻlimlar, qonlar toʻlgʻandir!  
Uning aldamchi bogʻlarida  
Qancha yosh gullar soʻlgʻandir!

**II**

Tinchlanib oʻlturib yulduzdan  
Ertaklar eshitmak boʻlsam,  
Yo oʻzim istab topqan qizdan  
Bir qarash, bir koʻrish soʻrasam.



## III

Har yerdan qancha tovushlar  
 Devlardek na'ra solurlar.  
 Tegramda nayza-qilichlar  
 Jonimga hamla qilurlar.  
 Salqin suv koni buloqlar  
 Kunduzlar chanqag'animga  
 Shir-shirlab ko'nglimni yo'qlar.  
 Men darrov olmag'animga,  
 Battarroq qaynab oqardi.  
 Bir ho'plab shunda men ichsam,  
 Kayfimga qancha yoqardi?  
 Istardim, qo'yniga qochsam!  
 Oh, tunda og'u bo'lar har  
 Manbadan tomchi suv ichsam,  
 Oh, tunda nozli buloqlar  
 Ko'nglimga tarqatalar g'am.  
 Bu tunda sevgili yorim,  
 Qoldingmi mendan uzoqda?  
 Bilmaysen, og'riqli bag'rim  
 Qon yig'lar tunda, bu yoqda.  
 Bu tunkim sirli, qorong'i,  
 Yo'llarda sharpa-da yo'qdir.  
 Ko'nglimda to'p-to'la qayg'i,  
 Oh, yo'llar qancha uzoqdir.  
 Kel, endi tashlama, qo'yma  
 Bu tunning qo'ynida yolg'iz.  
 Hijronni boshima yoyma,  
 Ey, tundek sochi qora qiz!.

1922-yil

**KET!**

Ket, ko'zimni aldag'uvchi xoin nur,  
Ket, olovli chizig'imdan nari yur.  
Ket, zaharli qizg'aldoqni irg'itma.  
Ko'nglimdagi so'ng umidni yo'q etma.  
Ket, ilohiy vijdonimni bulg'ama.  
Butlar bilan tegaramni chulg'ama.  
Ket, ey to'qqiz pari ko'zli qora qush,  
Yiqiq bo'lg'an ko'kragimdan chetda uch!  
Ket, sevgimning ulug' yovi, ko'rinma,  
La'nat sochib, yonlarimda yurinma.  
Eski do'stlar yo'l adashib o'ldilar.  
Yangi do'stlar buning uchun kuldilar.  
Yangi yo'lga oyoq bosmay to'xtasam,  
Bu yo'llarda qutulishlik yo'q desam,  
Sen ul choqda qaysi yo'lg'a solarding,  
Falokatdan qanday tortib olarding?  
Sening qo'pol..., qiynguvchi qilig'ing,  
Ket, mangulik yo'qqa ko'chsın borlig'ing.  
Ket, malaklar dostonini o'qima,  
Ket, aslsız ertaklarni to'qima.  
Ket, sevgili ko'kragimga tinchlik ber,  
Ket, sening-chun quchoq ochgan qora yer.  
Ket, jonimni qiynguvchi jodu-hur,  
Ket, ko'nglimni aldaguvchi yolg'on nur!

1922-yil

## ALDANISH

Besh yillik yonishim bir yil uchunmi?  
 Erkalab o'tkuvchi bir yel uchunmi?  
 Ko'zimga ko'ringan sarobmi edi?  
 Men shunga aldanib tog'larmi oshdim?  
 Sevgimning boqchasi xarobmi edi?  
 Shu boqcha ichida yo'lmi adashdim?  
 Ko'zimni o'rag'an kipirkmi edi  
 Yoki ko'k tusida pardami edi?  
 Ko'ngil shu choqqacha tirikmi edi?  
 Jonim ko'klardami, tandami edi?  
 Qo'limni tegizdim.... Odam edi-ku!  
 Ko'zimda o'ynag'an bir nur edi-ku!  
 Sezgim-da sog', tetik, bardam edi-ku!  
 Bo'yning qo'l solg'an bir hur edi-ku!  
 Nega men sevmadim? O't emasmidi?  
 Shul o't ichidagi men emasmidim?  
 Ka'banga osilgan but emasmidi?  
 Butni "Tangri" degan men emasmidim?  
 Men uni xayoliy, totli bir sevish,  
 Ilohiy bir muhabbat, ishq bilan sevdim.  
 Besh yil! Shuning uchun besh yil angalayish...  
 Yonish, kuyunishlarim... oh, endi bildim.  
 Oh, endi bildim, kim barchasi xayol,  
 Barchasi bir totli, rohat tush ekan.  
 Ket, yo'qol ko'zimdan, haqiqat, yo'qol,  
 Bag'rimga botmoqda og'uli tikan.  
 Chindan-da men u kun yolg'izmi qoldim,  
 Chindan-da u o'tli sevgi bitdimi?

Chindan-da turmushdan og'izmi oldim?  
Chindan-da umidim butkul ketdimi?  
Chindan-da ko'nglimda sevgi o'tlari  
Cho'g'siz o'chib qolgan shamdek o'chdimi?  
Chindan-da ka'bamning sanam, butlari  
Kul-parcha bo'ldimi, butkul ko'chdimi?  
Chindan-da men bukun sevmasmi bo'ldim?  
Chindan-da muhabbat o'timi so'ndi?  
Chindan-da men bukun tikanmi yuldim?  
Ko'nglim bu aldanishga, oh, qanday ko'ndi?  
Sevgimning yashashi bir yilmi edi?  
"G'uv" etib o'tguvchi bir yelmi edi?

1922-yil

**BITDI!**

Ber qo'lingni, shu titragan qo'lim bilan so'ng da'fa  
Bir qisayin, so'ngra ortiq u qo'llarga tegmak yo'q.  
Ko'zlaringni so'nggi marta tushur xira ko'zimga,  
Ko'kragimga kirpiklaring so'ng martaba otsin o'q.  
Ko'kimizda hanuz uchmay qarab turgan yulduzning  
Ko'r yuzini, ayriliqning ko'zi bilan sarg'aygan...  
Sen ketasen, yulduz uchar, yolg'izlikda tashlangan  
O'ksugingga hayot bermas yog'dulari kunduzning.  
Ber qo'lingni so'ng martaba, yolg'iz qolgan o'ksukka,  
Ot o'qingni so'ng martaba, alam kutgan ko'ksimga!..

*1922-yil*

## OPPOQ OY

Quchog'ingda qaltiraymen, titraymen  
Ortiq sendan bezdi ko'nglim oppoq oy.  
Yo'lni ochsang, endi bundan ketamen,  
Ko'klam yaqin kelgan, deylar "bir qaray!"  
Ko'kdan tushkan yengil, oppoq parlardan  
Quadrat qo'li senga ko'ylak to'qiydir.  
Uchib kelib uzoq-yaqin yerlardan  
Bir to'p qarg'a madhiyangni o'qiydir.  
"Ko'klam yaqin!" degan so'zni eshitib,  
Ko'zlaringga zamharirdek yosh keldi.  
U yoshlaring jam bo'lishib, uyushib,  
Osildilar... bo'yning yerga ~~egildi~~.  
Hovuz yuzi ikki qarich muz bo'lgan,  
Yosh bolalar tiyg'anishib o'ynaylar.  
Ushub, to'ng'ib masjidagi chol o'lgan,  
Yetim qolgan bolalarni yig'laylar.  
Jar qishloqning yo'lida ham shaharga  
Qaymoq va sut keltiruvchi bir bola  
To'ng'ib o'lgan, har kun erta saharda  
Shunday qilib bir necha jon yo'qola.  
Quchog'ingda juda sovuq, oppoq oy,  
Ko'klam kelsin, bir sevinay, bir o'ynay.

1922-yil

## YURT YO'LI

Uzoq... og'ir yo'lg'a chiqqan yo'lchimen,  
Bu yo'llarda qilag'uzim yulduzdir.  
Men yurtimning pok istakli kuchimen,  
U yulduzning tugalishi kunduzdir.  
Tomirlarim, olov kabi qaynag'an  
Qonlarini kechmishlardan olmishdir.  
Bilagimda iring'ib, chopib o'ynag'an  
Unutma, kim oyoqlaring tolmishdir.  
Uzoq yo'lning yo'lchisimen, boramen,  
Istagimni bu yo'llardan olamen.

*Buxoro, 1922-yil*

## KAPTAR

(*Semiramis*)

Semiramis – Kaldaniy va Ossurilar xurofotida “ma’bu-da” sanalib yurgan bir qiz. Bosh tomoni qiz, tanasi baliq bo’lg’an emish. Onasi uni tuqqanidan keyin, bir qamishzorg’a tashlag’an. Unda, uni kaptarlar o’stirib, parvarish qilg’anlar.

Shu uchun ismi “Kaptar” ma’nosida “Semiramis” qo’yilg’an. Qal’alar fath etkan, ko’p urushlar ko’rgan. Hindistong’a qadar borg’an bir fotih emish. Misdarda bir parixong’a fol ochtirg’an. O’sha fol to’g’ri kelib, oxirda suvg’a tushib, yo’q bo’lib ketkan emish. O’rnig’a o’g’li podshoh bo’lg’an. O’zi kechalari dengizga cho’kar, kunduzlari hukm surar ekan. Bir rivoyatda “Semiramis” turk qizi bo’lib, Eron podshohlaridan mashhur “Kayxisrav”ni o’ldirgan emish.

Ey, dengizning suvlaridan qudrat olg’an botir qiz,  
Kel, mundagi tutqun qizg’a yolboraylik ikkimiz!  
Sen suvlarning ko’pigidan oq chechaklar terganda,  
Sen qilichdan ilhom olib, kun chiqishda yurganda,  
Sening bilan birga chopqan, birga uchkan onalar,  
Nima uchun bu tutqunliq olovida yonalar?  
Sen kunduzlar qizg’in quyosh yog’dusida yonarkan,  
Tong otkanda tanlaringdan dengiz suvi tomarkan,  
Keng dalada qushlar kabi qanot qoqqan onalar,  
Nega, yolg’uz og’ularg’a-zaharlarga qonalar?  
Sen erkaklar kiyimida zo’r qal’alar ochqanda,



Otlaringning changlarini bo'yig'a sochqanda,  
Yo'llaringda qon dengizi ko'purganda, toshkanda  
Sening kabi istagiga ega bo'lg'an onalar,  
Nega bukun turmushdag'i har tilakdan tonalar?  
Sen Misrda go'zal Nilning uyqusini buzmasdan,  
Nimagadir hovliqmasdan, qutulmasdan, qiz(i)masdan,  
Yo'lingdagi jonsiz yotqan cho'plarni-da ezmasdan  
Qari kohin ma'budaga yurganingda sezmasdan  
Kechalarning sirlarini... To'lib yotkan onalar,  
Nima uchun tongga qadar qon – yosh to'kib qolalar?  
"Men dunyoda xotin bo'lib yaratilg'an edim-da,  
Eng qahramon erkaklardek mo'jizalar ko'rsatdim!"  
Deb yozdirg'on so'zlaringni (bo'zqirlar)da ko'rdim-da,  
Tutqun bo'lg'an onalarni qutqarmoqqa ahd etdim.  
Bu ahdinga yetmak uchun sendan kutamen.  
Kel, bu yo'lda ko'maklshsang, har to'siqni o'tamen!  
Ey, dengizning tublariga qochib kirgan kaptar qiz,  
Kel, mundagi onalarni uyg'otaylik ikkimiz!

*Toshkent, 1922-yil*

### O'ZBEK QIZI

Kirg'on edim bir kun bog'chag'a,  
Yaproq yanglig' titrab-qaltirab.  
Qarar edi ko'zim to'rt yog'img'a  
Qo'rqa-pisa, o'tday yaltirab.  
Allaqaydan, deyman, yonglishg'ina  
Yirtqich erim kelib chiqmasun.  
Yoxud sezib qolib qayinona,  
Ustlarimga tog'lar yiqmasun.  
Yo'q... ul kuni Tangrim saqladi-da,  
Ular meni sezmay qoldilar.  
Menga qarab chechak-gullar unda  
Sevinib ko'zni soldilar.  
Mana bu gul bu kun tongdagina  
Chiqg'on choyshab-parda ostidan.  
Parda yirtib, men ham chiqg'onimda  
To'sib chiqar erim qarshimdan.  
Mening baxtim qullar baxti yanglig'  
Yorug' o'lkalarda yashaydir.  
Baxti yiroq, ko'ngli to'la qonlig'  
Erkin Sharqning tutqun qizidir.

1923-yil

## KECHKIRISH

Baland-pastlik, katta-kichik binolar;  
Qizil, ko'm-ko'k, yashil tomlar ustida.  
Ola-bula, quyuq-suyuq bulutlar...  
Ko'kni qoplab, bir tomonda to'plang'an!  
Kun botadur... tarqoq, yoyiq lolalar,  
Unda-bunda bulutlarning yuzida  
Sil yuzidek rangi ketib so'liblar...  
Qorong'ulik Sharq tomondan qo'zg'alg'an!  
Shom azoni... muazzinning yosunsiz,  
Kuchsiz tovshi titrabgina cho'zilg'an...  
Yomg'ir picha yog'ib o'tkan, buzilg'an –  
Qing'ir ko'cha chetidagi uzun iz...  
Qismat izlab har tomong'a tarqalg'an  
Katta-kichik, yosh-u qari bo'shashib,  
Horib, charchab sekingina qaytadir,  
Mahallaning bir yeriga to'plang'an  
Bir to'p bola... turlik o'yin o'ynashib,  
Ketganlarni kutadir...  
Belgisizlik qanotini keng yoyib,  
Koinotni quchog'ig'a tortadir.  
Chirog'lar ham jin ko'zidek yiltillab,  
Xira qarab mung'ayib  
Ko'rınadilar.  
Kilkillab –  
Yomg'ir suvi yer bag'rida yotadir.

*Toshkent, 1923-yil*

**MENIM YO'LLARIMDA**

Menim yo'llarimda cho'zilgan tog'lar,  
Qorga qo'yin ochgan qator dovonlar...  
Ko'zlarim yo'llarga tikilgan chog'lar  
Ko'nglimda yo'l yurish istagi qaynar!  
Qorga qo'yin ochgan qator dovonlar,  
Sizga qarab turib kuchni chog'ladim.  
Ko'nglimda yo'l yurish istagi qaynar,  
"Yurib o'taman!" deb belni bog'ladim!  
Sizga qarab turib kuchni chog'ladim,  
Menim yo'llarimda cho'zilgan tog'lar!  
"Yurib o'taman!" deb belni bog'ladim,  
Ko'zlarim yo'llarga tikilgan chog'lar...

*1923-yil*

**BAS ENDI!**

Yetar, bas, chekdan oshgandir  
Bu qarq'ish, bu haqoratlar!  
To'liqdir, balki toshgandir  
Tubanlik ham safolatlar!  
Qo'limda so'nggi tosh qoldi,  
Ko'ngilda so'nggi intilmak,  
Ko'zimda so'nggi yosh qoldi,  
Kuchimda so'nggi talpinmoq!  
Bu qarq'ish, bu haqoratlar  
Kuchimni tortmoq istaydir.  
Tubanlik ham safolatlar  
O'zimni yutmoq istaydir!  
Ko'ngilda so'nggi intilmak,  
Shu holda ketmak istarman.  
Kuchimda so'nggi talpinmoq,  
Amalga yetmak istarman!  
Qo'limda so'nggi tosh qoldi,  
Yovimga otmoq istarman!  
Ko'zimda so'nggi yosh qoldi,  
Amalga yetmak istarman!..

*Toshkent, 1923-yil*

**CHECHAK**

*(Bir kechaning esdaligi)*

Yangigina yaproq yorib chiqqan chechak,  
Besh-olti kun har kim uchun tansiq boʻlar.  
“Bitdi ısı” deb tashlasa bıror tentak,  
Har kim tepsa, har kim ezsa, u haqlidir!  
Besh-olti kun koʻkraklarda ulugʻlanib,  
“Men goʻzalmen, chıroylikmen!” degan gulni,  
Yerga tushkach, olib koʻring... Soʻlgʻınlanib,  
Oʻlim tusli rangi bilan ıstar choʻlni!  
Va aytarki: “Agar choʻlda, biyobonda,  
Bir yovvoyı, hıdsız chechak boʻlsa edım,  
Uzıb olib, yerga urmas har ınson-da,  
Keng sahrıda oʻzım yashnab, sargʻayardım!  
Har xoin qoʻl meni yerga urmas edı,  
Har bir oyoq koʻkragımda yurmas edı!..”

*Toshkent, 1923-yil*

### SEVINCHINGNI QURALA!

Uyalmasdan, tortinmasdan har kishining yonig'a  
O'ynab kelgan, kulib kelgan, ey gunohsiz yosh bola!  
Senga hali juda uzoq kirmak odam sonig'a,  
Shuning uchun sira tinmay sevinchingni qurala!  
Yangigina yaproq yozgan erka, toza bir gulsan,  
Shuning uchun har bir nazar, har qarashing tozadur.  
Har boqchada, har daraxtda sharaqlagan bulbulsan,  
Har so'zingni bir farishta qanotiga yozadur.  
Bu borliqning qayg'usini anglamag'an yosh go'dak,  
Poylaringga o'ralashar qayg'u emas, gul-chechak.

*1923-yil*

### SUHBAT

S o' r a s h:

Nega yer qo'yniga tushib qolding  
Yuksak o'rningdan, ey go'zal yaproq?  
Nega och bag'rini quchib qolding?  
Seni tez so'ldirib, ko'mar tuproq.

Q a y t a r i s h:

Sog'inib yerni, bag'riga tushdim,  
Yuksak o'rnimdan, ey zıyrak tutqun!  
Kuchli sevgim bilan uchib-quchdim  
So'ldirib bugun, undirar bir kun!

*Qo'qon, 1924-yil*



## BAHOR KELDI

Yo'qsillarni ingratguchi qish ketib,  
Bahor keldi, gulbarralar ochildi.  
Vahimali qish binosi yiqilib,  
Go'zal bahor eshiklari ochildi.  
Bu sevgili qo'noq uchun quvonib,  
Ko'ngil ochmoq istab qirga chiqarmiz.  
O'ynab-kulib, gulbarralar terishib,  
Yugurishib, adirlarga chiqarmiz.  
Bahor bilan birga kelgan bulbullar  
Boqchalarda nola qilib sayrashar.  
Qizil gulning qarshisiga qo'nishib,  
"G'uncha tugib, ochilgin", deb so'rashar.  
Bulbullarning musiqadek ovozi  
Ruhimizga shirin oziq beradir.  
Jilva bilan tursa bahor shamoli  
Dimoqlarga shodlik isi keladir.  
Qulluq senga, go'zal bahor, xush kelding,  
Endi tog'da qizil gullar ochilsin.  
Olma, o'rik, shaftolilar gullashib,  
Maydonlarda ko'k maysalar ko'karsin.

*1923-yil*

### UCH-TO'RTTA YULDUZ

Go'riston, qorong'i zım-zıyo bə'shliqda  
Adashkan bir yo'lchi tasavvur qilingiz!  
Qo'rqarsiz! Qo'rqarsiz!..  
Va lekin ufqda  
Uch-to'rtta yulduzning uchmasdan yarqirab,  
Nur sohib turg'ani ko'rulsa... dilingiz  
Qo'rqishdan bir qadar to'xtar-da, parqirab  
Ko'zingiz oldida bir umid ko'rınur.  
Shu umid: Qutulish tongining nuridir!

*Buxoro, 1923-yil*

### BALANDLIQDA

Oqshom chog'i munda kel-da, sayr et,  
Qobusi qadam bilan fanoni.  
Intilma samoga, to'xta, sabr et,  
Bu yerda tanib ol oq-u qaroni!..

*Buxoro, 1923-yil*

## YANA O'T<sup>1</sup>

Yana tegramda o't, olov, uchqun,  
 Yana ko'klarda sor va burgutlar,  
 Yana qo'zg'almoq oldida tutqun,  
 Yana sarhadda "ur", "yiqit", "tut!"lar.  
 U og'ir zanjiringni shaldiratib,  
 Qari Sharq, sen-da qo'zg'alursenmu?  
 Uyushiq qo'llaringni qaltiratib,  
 "Madaniyat"ga shop solursenmi?  
 Yoki o'tkandaki erinchaklik  
 Yana yillarcha tebraturmu seni?  
 Yoki bir hovliqar-da erkaklik,  
 Qonli maydonga tezlaturmi seni?  
 Qo'zg'alib ketganingni bir ko'rsam,  
 "Qutulurman!" degan ishonch bo'lsa,  
 Kishaning parcha-parcha to'g'ralsa,  
 Qutulish izlaringga yuz sursam!  
 Ruhı yo'q bir "mashına" oldinda  
 Nega yerlar qadar tubanlanding?  
 Nega jonsız temirga bog'landing?  
 Xo'rlanish shunchalarmi insonda?  
 Yana har yona o't va uchqunlar,  
 Yana qo'zg'aldi qonli to'liqlar!

*Toshkent, 1923-yil*

<sup>1</sup> Bu narsa katta bir urush boshlanmoq ehtimoli kuchayganda yozilib edi. Urush chiqmay qoldi. Sharq ham shu uchun qo'zg'almay qoldi.

## OY QO'YNIDA

*Shaftoli – kelinchak  
Uning qo'ynida men tentak...  
"Men bog'ingga kirmasdan,  
Odoq bo'пти yemasdan;  
Muncha to'lib yig'laysen  
Men qo'yningga kirmasdan... "*

Xalq qo'shig'i.

Bir tomchi to'kilgan yosh uchun shuncha so'lishmi?  
Bu boqchada gul ko'p edi so'ldi amalimdek!  
Ko'nglingda biror sharpani sezsam edi, guldek,  
O'ganda-da sen menda ko'rarding sevishini!

Shaftolida oy nurini ko'rgach, yana ruhim  
Oylar kabi yosh davriga suqlar kabi boqdi.  
Yoshlik o'zi – sevging kabi tortilmadi bir zum.  
Bir zum o'zi, bir gul o'zi... Do'zax kabi yoqdi.

Ko'p titrama, ko'p o'ynama, ko'p qaynama, ey barq!  
Hirs ko'zları sof ko'ksingga og'uli tikandek  
Bir botsa-da, yig'latsa-da, dodlatsa-da mendek  
Har ko'zga baqirsangki "Topilmas toza istak!"

Mendan so'ra, yolg'iz mana men aldanib o'tdim,  
Har sahfası, har yaprog'i "aldash" bu kitobning!  
Bir o'qqa ilinmasmi, tilinmasmıdı jonıng?  
Oy qo'ynida tong otguncha senga shuni aytdim...

Bir tomchi to'kilgan yosh uchun shuncha so'libsan,  
Aldamchi fano ko'zlarga tentakcha kulibsan!

Toshkent, 1923-yil

## QIZ QO'SHIG'I

O'ksuk ko'ngil qushi  
 Tushdi qafasga,  
 Sira yetolmaydir  
 Erkin nafasga,  
 Qora kunlar tushdi menim boshimg'a.  
 Siqiq qafaslarda  
 Yayray olmaymen.  
 Jannat bog'lar bor-ku,  
 Sayray olmaymen.  
 Yomon kunlar tushdi menim boshimg'a.  
 Qıp-qızil qon bo'lib  
 Kunlar botadir...  
 Yomon hidga to'lib  
 Tonglar otadir.  
 Og'ir kunlar tushdi menim boshimg'a.  
 Jannat kabi bog'lar  
 Bulbulsiz qolg'an...  
 Osmon bo'yi tog'lar  
 Qulunsiz qolgan...  
 Qiyin kunlar tushdi menim boshimg'a.  
 Ko'z yoshimda yuvsam  
 Yurtning bag'rini,  
 Tilim bilan so'rsam  
 Oqqan qonini...  
 Qonli kunlar tushdi menim boshimg'a.  
 Hasratim ko'p, elga  
 Ayta olmaymen.  
 Armonim ko'p, dilga  
 Joylay olmaymen.

O'tli kunlar tushdi menim boshimg'a.  
Qafaslarni buzib  
Uchsam osmong'a!  
Kishanlarni uzib  
Yetsam jonong'a!  
Yorsiz kunlar tushdi menim boshimg'a!

*Andijon, 1923-yil*

## "ICHKI HISLAR" OSTIDA

*Tansa kechasida qog'ozdan  
gul sotib yurgan bir qizg'a*

Hay tutash, ko'p chopdingiz... Bizlar tutashdik siz uchun!  
 Bir kulish, bir jilmayish ortiqmi dersiz biz uchun?  
 To'ldi ko'krakka butun gullar, chechaklar, lolalar;  
 Siz qadab qo'ymasangiz, bir pulga turmaydir ular..  
 Jingalak sochlar bilan ko'z o'ynatib, gul sanchdingiz,  
 Oh, faqat, dilda muhabbatdan jarohat ochdingiz!  
 Gul-chechak ham lolalar bag'rimga so'lg'ay tezgina,  
 Ko'p zamon yashnab yurarsiz ko'p ko'ngilda sizgina..  
 Biz faqir... ko'p aqcha yo'q... Topkanni soldik xaltaga,  
 Har o'tish, har ko'rish chog'ida achchig' bu nega?  
 Tubda biz munday o'yinlardan taqir tot olmadiq,  
 Boshqalarday chochishib, masrur bo'lib o'ynolmadik..  
 Bu kecha ko'rduk faqat sizni.. Yurak bir o'ynadi!  
 Yozmas erdim, afv etarsiz... Ichki hislar qo'ymadi...

*Toshkent, 1923-yil*

## MEN HAM SEVAMAN!

Oydin kechalarda ko'kka ko'z tikib,  
 Yorug' yulduzlardan sevgi kutdim men.  
 Har yulduz tig'iga ruh bilan tegib,  
 Uzun tunlar bo'yi kutib o'tdim men.  
 Yurg'anda, turganda har go'zal narsa,  
 Menim ko'zlarimga sevgi ko'rindi.  
 Sevgiga yot bo'lgan haqiqiy shu'la,  
 O'tlar, olovlar-chi,  
 pırpırab so'ndi!  
 Yigitlik ko'karib yasharg'an damda,  
 Har yumshoq tovushqa tutqun bo'ldim men...  
 Har go'zal chehraga ko'ngil berganda,  
 Borliqni u uchun qurbon qildim men...

## 2

Endi u kunlarim o'tib ketdilar...  
 Endi turmushimda oydin kechlar yo'q.  
 Vafosiz sevgilar uchib bitdilar...  
 Angladim sevgida har ko'ngil buzuq!  
 Ko'nglim quruq emas, yana sevgi bor.  
 Faqat bu sevgida aldanish yo'qdir.  
 Horgan ko'zlarimda xayol yana bor,  
 Faqat u xayollar nurdan tinıqdir.  
 Endi har nafasda yana kuyamen,  
 Faqat majnun bo'lib elni sevamen,  
 Ung'a hurmat bilan bo'yın egamen,  
 Boshimni u uchun dorga qo'yamen!..

*Toshkent, 1923-yil*



## O'ZIMNIKIGA

Ko'p ko'rkam chechaklar o'rab olganda,  
Behuda hislarim hıyla qiynadi.  
Butun ko'rkamlikni sen menga saqla,  
Sendan boshqa gullar "o'z emas" endi.

*Toshkent, 1923-yil*

## G'AFLAT

*"Biz olam kitobini yanglish o'qiyimiz-da  
"U bizni aldaydir" deymiz".*

R. Tagor.

Tonglarning sirlari to'rni keng yoyganda,  
Biz – g'ofil, uyquning qa'rida qolamiz.  
To'lg'an oy ko'klarda suzilib borg'anda,  
Biz – qo'pol, tonglikning qahrida qolamiz.  
Yolg'onlar, aldashlar boshlang'an damlarda  
Uyqumiz ochilib, borliqqa chiqamiz.  
Bır zamon qilichlar hech turmas qinlarda...  
Shul zamon biz hatto ko'klarda uchamiz!  
Derlarki: "Oylarning nurida vafu yo'q!"  
Demaslar ularki: "Ayb bizda, biz buzuq!"

*Andijon, 1923-yil*

## SOMON PARCHA

(*"Kundalik daftarım"dan*)

*Dahr bir selobdir mulhaq fano daryosına  
Bizki sergiranız ul seylaha dushmush xor-u xas.  
Chizginur xor-u xas ul selaba o'lduqcha revan  
Yetmeden daryaya rohat mumkin olmaz bir nafas...*

Fuzuliy.

*Topshirdim o'zimni muhitning erkiga...  
Muhit girdobida bir somon parcha,  
Bir poxol cho'pidek oqib boramen.  
Har amal, har ishini "haq" deb boraman,  
Vazminim qolmadi bir uzuq qilcha...  
Muhit kuchli ekan, egdim bo'ynimni,  
Chaqmoqdek yaltirab uchish yo'q endi.  
Yolg'on xayollarga ko'chish yo'q endi,  
Oqishning yo'liga soldim kunimni.  
Na isyon, na to'lqin, na to'fon, na o't!  
Ko'zimda og'ir bir taslim nuri bor.  
Ay o'tli kechmishim, yuzingni berkit,  
Senda shaytonlarning haqsiz zo'ri bor.  
Men endi xuddi bir somon parchasi...  
Lekin zo'r dengizning cheksiz qo'ynida,  
Jimgina boradir kirsiz qo'ynimda,  
Erkin ko'piklarning allaqanchasi!  
Kirmaymen ko'chaning boshi berkiga,  
Chunki taslim bo'ldim muhit erkiga...*

*Andijon, 1923-yil*

## XAZON

Kuz chog'ı... tuproqlar gezarib qoldilar,  
Gezarib qoldilar kuz chog'ı tuproqlar.  
So'ng damda yaproqlar qizorib yondilar,  
Qizorib yondilar so'ng damda yaproqlar.  
Qarg'alar bog'larda qag'lashib qoldilar,  
Bilmadim, kimlarning qismati uzulur?  
Yong'oqqa yopishib, bir changal soldilar,  
Bilmadim, kimlarning umidi yo'q bo'lur?  
Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelg'onlar,  
U qo'pol tushingiz qorlarda yo'q bo'lsin!  
Ey, menim bog'imdan mevamni terg'onlar,  
U qora boshingiz yerlarga ko'mulsin!  
Bilmadim, kimlarning umidi yo'q bo'lur,  
So'ng damda yaproqlar qizorib yondilar?  
Bilmadim, kimlarning qismati uzulur,  
Kuz chog'ı... tuproqlar gezarib qoldilar?

**DAMLAR..**

Dam bo'lurki, qalbim tongning shamoli  
Qarshisida qaltiragan yaproqdek  
Asta-sekin titrab ketar... men ham tek,  
Jim qolaman unga quloq solgali,  
Butun esim, sezgim bilan tolgali...

\* \* \*

Ba'zan xayol etagini tutqizmas,  
Yot yerlarda o'z boshicha yo'q bo'lur.  
Shunda es ham qalb tiliga tushunmas,  
Boshi qotar, qo'pollanur, to'nglanur.  
Shunda birdan g'aybdan tovush: "Ey shoir  
Quruq qolding saodatli damdan!" der,  
"damdan!" der...

*Andijon, 1923-yil*

## SEZGI

Boqchalarda so'ldi gullar, so'ldi gular, sezmadim,  
 Qip-qizarib, botdi kunlar, botdi kunlar, sezmadim.  
 Qayda qoldi qonli kunlar, qonli kunlar, sezmadim.  
 Sochlaring bog'lab olib, bog'lab olibdir sezgin!  
 Bir yiroq yo'lkim uning yo'qdir keti, yo'qdir keti;  
 Chang va tuproq bo'ldi-ketdi, unda ko'plarning beti,  
 Ming jahannamdir, jahannamdir uning ikki cheti,  
 Bir kuni o'lgay adashib qon muhitining kelgini...  
 Ko'zlarimni men tikib qoldim, tikib qoldim unga,  
 Lola gullarni ekib qoldim, ekib qoldim unga,  
 Toza umidni tutib qoldim, tutib qoldim unga,  
 Chunki men ko'rdim, ko'rib qoldim keraklik belgini!..

*Qo'qon, 1923-yil*

## TASHLAMA

*Ko'ksingdan gulingni olib tashlama!*  
 Xayoling ko'klarda uchib yurganda,  
 O'ynoq istaklarni quchib yurganda...  
 Ko'zlarim ko'ksingga bog'lanib turdi;  
 Qarashim o'zimni u gulga urdi.  
 Sevganing sen gulga boqmas bo'lsa-da,  
 Sen jafo rasmini aslo ushlama!  
 Ko'ksingda bir kuni qurib so'lsa-da,  
 Go'zal qiz, u gulgini olib tashlama!..

*Qo'qon, 1923-yil*

**JAR BO'YLARINDA**

Yana jar bo'ylarında yonboshlab,  
Ko'zni atrofga yurguzib qoldim.  
Yana "sebarga"larga gap tashlab,  
Tilda qillarini tirguzib qoldim.  
Yana do'stlar bilan kulib, o'ynab,  
Qayg'uni ko'mmak istadim yerga.  
Yana bor-yo'qni munglanib, kuylab  
Yana tovshimni quladim qirg'a.  
Yana jarlarda sakrashib, chochib,  
Yana qizlarni quvlashish ketdi.  
Yana gullarni yastashib, yanchib,  
Ko'kat ustinda o'ynashish ketdi.  
Yana yumshoq shamol boshimdan uchub,  
Yana sochlarni tarqatib ketdi.  
Yana o'ylar, balandga - ko'kka qochib,  
Yana umidga yo'l topib ketdi...  
Qo'rqa-qo'rqa, sekin kulib gullar,  
Yana kun tig'ini quchoqlaylar.  
Yo'q faqat munda toza sunbullar,  
"Shu" uchun chin amallar ag'laylar...  
Quyida suv oqar qo'shuq aytib,  
Jimgina tinglamoqda bir to'p tol...  
"Men o'roz axtaray tubanga ketib,  
Sen bu jar bo'ylarında yashnab qol!"  
Bu qo'shuqlar menim-da ko'nglimda,  
Eski o'ylarni qo'zg'atib qo'yadir.  
Gul emas, shox-tikon-ku qo'ynimda,  
Har bahor bir botib, ezib qo'yadir.  
Yana jar bo'ylarında... Qayg'u faqat,  
Yana yastandi, so'ldi... Maysa, ko'kat...

*Toshkent, 1923-yil*

**KO'RUNGAN ALANGA**

*(Germaniya voqealari to'g'risida)*

Xunuk, buzuq, sovuq yuzlar alanganing bag'rida  
Qon o'ynag'an ko'zlarini katta ochib turalar...  
To'p kishilar alangaga o'zlarini uralar,  
Onalarning ko'z yoshlari bolalarning dog'ida.  
Ey madaniy, ey faylasuf, ey alloma "kunbotish!"  
Yer yuziga kishan yoyib, qullik sepib, oxurda  
Bu nima, bu – alangalar to'ri bilan o'ralish?  
Hech mumkinmi qahr etilsun qahr etguvchi qahrda?  
Yer yuzining bir burchida siz bazmlar qurg'anda,  
Olam-olam bechoralar botqoqlarda surundi.  
Nima uchun atrofingiz alangaga burundi,  
Qon noqusi sizning uchun yengish mashqin urganda?  
Har tarafda sizning g'olib qullaringiz yurganda,  
Nima uchun olov chiqdi, alangalar ko'rundi?

*Andijon, 1923-yil*

**RAQAMLIK SEVGI***("Naylaram" kuyiga)*

Bir va ikki, uch va to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, o'n  
Sanalarni yo'llaringda yostab o'tsang sen butun,  
Yangi-yangi sanalar tursa qator ezmak uchun,  
Shunda ham bo'lmasmi bir shafqat, tarahhum, qizg'onish?  
Xoli bog'da kuchli boda, xush saboda bir kecha...  
To'lg'on oyning nurlari o'psa sochingdan tonggacha,  
So'ngra oppoq bir bulut boshingda yursa shomgacha,  
Shunda ham ko'nglingda sezmaysanmi ozroq uyg'onish?  
Yuzlaring bir, ko'zlaring o'n, so'zlaring ming aldadi,  
Borlig'inga aldamoqdan boshqa narsa qolmadi.  
Ko'kraginga qizg'onishning yellari qo'zg'olmadi,  
Shul sababdandurki, ko'nglimda umrlik o'rtanish...  
O'yna, kul, guldek yengil, yovlar uchun, yovlar uchun...  
Biz yotaylik yo'llaringda... yosta, tuproq qil butun.  
Bir va ikki, uch va to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, o'n –  
Sanalarning haqqi yolg'iz yo'llaringda yostanish...

*1923-yil*



## QUSHNING HADIGI

### 1

Qush bechora qo'rqadir kim uyasidan ayirg'aylar,  
 Uyasidan ayirmoq-la qanotini qayirg'aylar.  
 Mayda simdan silliq qilib, mohirona to'qilgan bir  
 Qafas topib, darchasini ochib derlar: "Maskanga kir!"

### 2

Miskin qush ham yangi maskan "chekkasi"ga qo'nib olar,  
 Maskaniga ko'z yugurtirar, tegrasiga nazar solar.  
 Va ko'rarkim maskan o'zi mashinada quyilmishdir,  
 Uni hozir qilmoq uchun, ko'p zehniyat sarf bo'lmishdir.  
 Darchalari mahkamgina, puxtagina, xotirjamlik,  
 Suv ichkali, don yegali teshiklar bor kichik-kichik...

### 3

Sımlar bilan ishi yo'qdir, chiqmoq uchun ochib ko'rar,  
 O'rmonlarning xayolida har tomonga o'zni urar.  
 Tomni teshib chiqmoq uchun shıplarga ham ko'p ilinar,  
 Unday qilib, bir intilar, munday qilib, bir intilar.

### 4

Faqat zaif vujudini qancha ursun devorlarga,  
 Balki uning yumshoq tani to'lib ketsun ol qonlarga,  
 Devorlarning sezgisi yo'q, tuyg'usi yo'q, tovush bermas;  
 Tegra butun ruhsiz gavda, "Nechun mundoq bo'lding?" demas.

## 5

Uning butun tasallisi – toʻlib-toshib sayramoqdir,  
Koʻm-koʻk dala oʻrmonlarni eslab-eslab yigʻlamakdir,  
Yigʻlamakdir!.

*Oʻsh, 1924-yil*

## OʻSH KECHASI

Qop-qorongʻi kecha... chiroqlardan  
Soʻnggi nur ketdi, u yiroqlardan  
Oʻkirib, guvlagan tovush keladir,  
Kechaning keng sukutini tiladir...  
Nima?  
Qandoq tovush bu?  
Bilmayman,  
Qulogʻimni sira ololmayman.  
Balki bir toʻp ajinaning qoʻshigʻi,  
Yoki alvasti tovushining choʻzigʻi,  
Yoki togʻlarda dev botir oʻynar,  
Yoki sahroda boʻrilar toʻyi bor...  
Kechaning, balki, yigʻlagan dodı,  
Balki kunning alamli faryodi!..

*Oʻsh, 1924-yil*

## KO'KLAM KELADIR

Ko'klam oyim yo'lg'a chiqqan, ko'klam oyim qo'zg'alg'an;  
 Ko'k ko'ylakning bitishiga uncha ko'p ham qolmag'an!  
 Tiniq havo... ko'k yuzida oppoq, harir pardadek  
 Oq bulutlar, unda-munda yoyilg'anlar parishon.  
 Shu'lalarning aksi bilan yiltillagan ignadek,  
 Kun tig'ları, qarashlarg'a o'tkur-o'tkur sanchilg'an...  
 Qip-yalang'och daraxtlar ham quchoq ochib, ko'z tutib,  
 Ko'k ko'ylakning bitishini chidamasdan kutalar.  
 Qarg'alar ham qishda qilg'an gunohlarni unutib,  
 UZR aytmasdan, indamasdan, uchib-uchib ketalar.  
 Sezgilarni uyg'otguvchi hidli gullar to'planib,  
 "Biz ham yo'lg'a chiqdik!" deya yuborg'anlar bir chopar.  
 Gul hididan rızzq emguchi jonivorlar uyg'onib,  
 Erta-indin boqchalarg'a, chamanlarga tarqalar.  
 Ko'klamoyning ipak ko'ylak etaklari sudralib,  
 Qora yerning boshlarini silab-sıypab keladir.  
 U silashdan, u sıypashdan quvvat olib, kuch olib,  
 Qora yer ham ko'ksidagi oltinlarni beradir.  
 Ko'klam bilan yurtimizga ham bir ko'karish kelsaydi;  
 Ko'ngillar ham havolardek ko'klam hıdi bersaydi,  
 Hıdlarga ham havolardek ko'klam ruhi kirsaydi!..

*Andijon, 1924-yil*

**ISTASH**

Ko'nglimga yaqin narsani izlab kecha-kunduz  
Har yoqqa qarayman.  
Tong vaqtida nur to'kkuvchi yolg'izgina yulduz  
Aytarki: "U menman!"  
Men unga ishonmoqchi bo'lib o'ynataman ko'z,  
Ul ham kula boshlar.  
Shul choqda devorlar ichidan qayg'uli bir qiz  
Yig'lab kela boshlar.  
Ul munda, yovuqda, shu uchun tez burilib men:  
"Hoy yer qizi!" deyman,  
Ko'nglimga yaqin yulduz emas, boshqa emas, sen,  
"Yer yulduzi" deyman.  
Bu so'zni eshitgach qochadir ko'kdagi yulduz,  
Albatta arazlab,  
Ham jim bo'ladir yerdagi bechora, g'arib qiz,  
Go'r og'zini izlab.  
Ko'k yulduzi ırsız edi, yer yulduzi kuchsiz,  
Har ikkisi ketdi.  
Ko'nglimga yaqin narsani izlab kecha-kunduz  
Oy-yillarım o'tdi..

*Andijon, 1924-yil*

## YANA KO'KLAM

Yana men senga qaytdim, ey ko'klam,  
Chunki borg'an sari yuzing ochilib,  
Chunki borg'an sari hiding sochilib,  
Sil ko'ngillarga baxsh etar malham!  
Kechaning sirlı qo'ynıg'a bekinib,  
Kechaga totli bo'salarnı berib,  
Yuzidan pardalarnı ırg'ıtqan,  
Dunyog'a bir kelin kabı chiqqan.  
Turli tuslardagi chechaklarnı  
Ko'rsam, aynıqsa, tong otar choqda,  
So'ngra kun qon sochib botar choqda,  
So'nggi nur o'ynag'an teraklarnı –  
Shunda shabboda-qız bilan birga,  
Quvlashib o'ynag'anda yaproqlar,  
Shu juvon toldagi quruq bir shox,  
Qup-quruq gavdasın tutib yelga –  
Qaysı ko'klamnı! Bilmadım, yo'qlar!  
Kimga hasratını anglatar?!  
Evoh!...

*Toshkent, 1924-yil*

**IKKI O'T O'RTASIDA***(Ruscha bir asardan)*

Bir tarafda sening ko'zing kulmaktadir, ey yulduz!  
Bir tarafda jigarimni tilmaktadir, go'zal qiz,  
Sening o'tkur ko'zlaring!  
Yuksakdagi abadiyat quchog'ini ochadir,  
Quyidagi yonib, o'chish hıdlarini sochadir.  
To'g'ri ekan so'zlaring.  
Ey, har zamon odamlarni yuksalishga chaqirg'an!  
Va bu qo'pol miyalarga sig'olmag'an hur vijdon!

*Qo'qon, 1924-yil***BAHOR VA MEN**

Bahor keldi... lekin uning davrida  
Ketib qoldi bahorlarning sultoni.  
Umid undi raqibimning bag'rida,  
Ortib ketdi kelgusiga imoni.  
Bahor chog'i... raqiblarim ketarlar,  
Lekin menim hasratlarim ketmaylar.  
Bu raqiblar meni ma'lul etalar,  
Fig'onlarim sultonimg'a yetmaylar!..

*Qo'qon, 1924-yil*

## GULSARA

Termak istab bir-ikki dasta chechak,  
Gulsara chiqdi qo'shni boqchasig'a.  
Ilashib bir "tikani-shox" orqasig'a,  
Yirtilib qoldi shunda shohi etak...  
Gulni bermakchi bo'ldi sevganiga;  
Sevinib, hovliqib, shoshi keldi.  
"Mana, bir arzimas hadiya" dedi,  
Sevinib, gerdayib shu qilg'anig'a.  
Sevgani ko'rdi: Yirtilibdir etak!  
Dedi: "Kimlar bilan quvushding sen?"  
Dedi: "Yolg'iz tikanni ko'rdim men..."  
Dedi: "Menmas, sen o'ylag'an tentak!"  
Yerga – tuproqqa tushdi guldasta,  
Sindi qiz qalbi shunda birpasta.

*Chimkent, 1924-yil*

**VAHM**

Kechasi oydında, oynıng ham xıraroq vaqtıda  
Na uchun ko'zımga haybatlı ko'rındıng,  
Ey, menıng ayvonım oldıda tek turgan  
Bırına tup archa?  
Keyıncha yuzıngga oy nurı oqdı-da,  
Butunlay boshqa xıl kasvaga burundıng,  
Yuzıngga tikılıb, ındamay tek turgan  
Ko'zımga nımalar gapırdıng yashrıncha?  
Yolg'ızsan, bır tupsan, oydıń kech qo'ynıda,  
Bog'ımda, ey archa.  
Lekin men borlıqning tamomıy shaklını  
Yuzıngda ko'rdım-ku shu kecha!  
Bır tupsan, yolg'ızsan, yakkasan shu bog'da,  
Yer ostı-ustıda bor qadar archalar bırlashdı  
Sen bılan shu choqda, shu choqda!..

*Qo'qon, 1924-yil*



**BAHORDA***Talabalarga*

Bahor keldi – tabiatning qo'llari  
Daraxtlarga ipak ko'ylak kiygizdi,  
Yer ham so'lgan ko'katlarni tirgizdi,  
Yashillandi dalalarning yo'llari.  
Tut tagida qaynab yotgan choydoshcha  
Chaqiradi ishlab yotgan dehqonni.  
Bir chekkaga tashlab qo'yib ketmonni,  
Ul ham sherik dehqoniga der: "Kulcha –  
Bo'lmasa ham zog'orangni olib kel..  
Nari-beri choyni ichib tashlaylik,  
Innaykeyin jo'yak ola boshlaylik,  
Choydoshga ham bir siqim choy solib kel".  
Birozgina choy ichishib, dam olib,  
Yana o'sha og'ir ishga tusharlar.  
Shomga yaqin ishlaridan bo'sharlar,  
Va qaytarlar horib, charchab, sudralib.  
Uzun qishni kitob bilan o'tkazgan.  
O'qig'uvchi yosh o'rtoqlar, hormanglar.  
Ko'ngillardan g'am va g'ashni ketkazgan  
Bahor chog'i yayrashdan ham qolmanglar.

*Qo'qon, 1924-yil*

### KATTA YO'L BO'YIDA UCHRAGAN YAPROQ UCHUN

Yaproq, yaproq... butoqlarda  
Qaltiragan varam yaproq.  
Yuzlaringni so'ng choqlarda  
Butun bosib ketgan tuproq.  
Ot o'tgan-u chang chiqargan,  
Changlar kelib senga qo'ngan.  
Qo'ngan changlar qola bergan,  
Shular bilan ranging o'nggan.  
Yana har kun yo'ldan o'tgan  
Har oyoqdan chang qo'zg'alar,  
Keng ko'chadan ko'tarilgan  
Har bir zarra senda qolar.  
Sening ko'm-ko'k toza yuzing  
Ko'zga taqir ko'rinmaydir.  
Shaftolimi, olxirotni,  
Ko'ksultonmi, kimsan o'zing?  
Tiriklikdan nishon bormi?  
Nega sira bilinmaydi?  
Seni siypab, erkalatib,  
Asta-sekin ko'kartirgan  
Go'zal ko'klam o'tib ketdi.  
Hozir yozning eng yetilgan  
Qirchillama vaqti yetdi.  
Sen yotasan changga botib...  
Erta-indin qovog'ini  
Burishtirib kuz ham kelsa,  
To'plab idish-oyog'ini

Sekin-sekin yoz ham jilsa.  
Chang ostida sarg'ayasan  
Bir pirpirab yerga tushib,  
Kechalari to'ng'ib, ushib,  
Oxir yerga yem bo'lasan.  
Aynib berib havo agar  
Hozir yomg'ir yog'sa edi  
Betingdagi sariq changlar  
Loyqalanib oqsa edi.  
Yozning alvon ko'yilagiga  
To'yib-to'yib qarar eding,  
Bir gulman-ku men ham unga  
Deb maqtanib yon-beringga  
Birozgina yayrar eding...  
Sevinchi ber: ko'k yalangga  
Qora bulut chodir qurdi.  
Yuzingdagi qalin changga  
Tomchi-tomchi nam yugurdi.  
Oq tomchilar tasbeh yanglig'  
Cho'zilishib chizildilar.  
Seni ezgan tuproqlar ham  
Ko'kdan tushgan to'qmoq bilan  
Xo'p yanchilib ezildilar.  
Chang ostidan chiqmoq bilan  
Silkinishib, bir jonliliq  
Ko'rsatarlar tebrasidan  
Alamzada yaproqlar ham,  
Shudir yozning asli rangi.

*Toshkent, 1924-yil*

**EY, BULUT***Sayohat esdaliklaridan*

Dalalar-qirlarda, adirning yonida,  
Har turli yovvoyi ko'katlar qo'ynida  
Uxlagan yo'lchini nimaga uyg'otding,  
Na uchun ko'zingdan sadafdek yosh to'kding?  
Bevafo bir tentak qo'lingdan chiqdimi,  
Yo go'zal maskaning ilonga in bo'ldi.  
Yo erkin ko'nglingni tiriklik siqdimi,  
Yo sevgan go'daging bo'riga yem bo'ldi?  
Har holda men kabi bir sayoq, telbasen,  
Yuzingga hech qayda bir eshik ochilmas,  
Sen qochgan yo'l bilan odatda qochilmas,  
U yo'l ham boshqadek mahv etar... bilgaysan!..  
Adirning tepasi bir ozroq joy berdi,  
Kiprikni-kiprikka qo'ydim-da, yoyildim.  
Shu choqda ko'klarda ko'lankang ko'rindi,  
Tush bilan ko'rishar-ko'rinmas ayrildim...  
Ko'zimda sen kabi uyqu yo'q, ay bulut!  
Istayman o'limdak umrli bir sukut!..

*Chimkent, 1924-yil*

## BULOQLAR QUCHOG'IDA

*Chimkentga*

Ey, ko'nglimda shon aralash uyat biroz qoldirgan,  
 buloqlarning quchog'i!  
 Kimlar-kimlar, ko'kragingga dovul kabi soldirgan,  
 ey tuzalish o'chog'i!  
 Men bag'ringga shifo istab kelgan og'riq bo'lsam-da,  
 boshqa narsa izlayman.  
 U narsani topmag'uncha charchasam-da, tolsam-da,  
 ko'kragingda kezarmen...  
 Men izlagan eski izlar, bilmadimki, qolgaymi,  
 yoki o'chib ketganlar?  
 Sahfalarda o'runlashgan kitobalar yolg'onmi  
 yo shilnib bitganlar?  
 Tarix uchun yozdirilgan kitobalar o'chmaslar  
 o'chmaguncha ko'not!  
 Tarix bilan o'rnatilgan haykallar ham ko'chmaslar  
 ko'chmaguncha mumkinot!  
 Tarix uchun o'rnatilgan haykallarni ko'rsam men  
 shu shifolik siynangda,  
 Meni emas, yana boshqa bir haykalni ko'rgaysan  
 adir yo'li - zinangda!..

*1924-yil*

### YOZNING TUGALISHI

Alvido, ey quchoqqa sig'mas yer,  
Alvido, ey ko'katga ko'krak qir.  
Sen-da so'lmoqqa yuz tutib qolding,  
Men-da ketmoqqa ko'z tutib qoldim.  
Alvido, "munda qol!" degan ko'krak!  
Ko'p og'ir sendan ayrilib ketmak!

*Chimkent, 1924-yil*

### SOZIM

Nafrat o'lkasidan hijrat qilg'anmen,  
Ulfat diyoriga maskan qurg'anmen.  
Yuzimni o't emas, gulga burg'anmen,  
Samoviy zavqlarg'a to'lib turg'anmen  
Bulbullar sevgini maqtag'an damda!  
Chechaklar o'sg'usi ko'z yoshlarimdan,  
Bo'g'inlar ung'usi o'ylashlarimdan,  
Qalblar yumshag'usi sayrashlarimdan,  
Sevgi chamanida yayrashlarimdan  
Jannatlar yaratgay tashlangan janda.  
Tilingan tillarga qon yugurg'usi,  
Bo'shalg'an inlarga jonlar kirgusi,  
Tikanli boqchalar chechak ko'rgusi,  
Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi  
Jandalar tanimga tekkan kunlarda!..

*O'sh, 1924-yil*

### SHAFTOLIGA

O'n sakkizga kirgan qishloq qizlarining yuzidek  
Qip-qizarg'an yuzlaringdan bir o'pish ber, shaftoli!  
Senga qarab turg'animga – bir ozgina bo'lsa ham –  
Bo'lmas kabi, yo'q kabidir ... umidimning zavoli!  
Umidimning zavoliga qon yig'lag'an ko'zlarim,  
Yoshlarimni yuzlaringga tomchi-tomchi to'kdimi?  
Yoki sevgi armonida shahid bo'lg'an yigitning  
Yesir ruhi qoni bilan lablaringdan o'pdimi?  
Mayli, sevgan oshiqlaring yuzlaringga to'yimasun,  
Lekin raqib lablaringga lablarini qo'yimasun,  
Zaharini qo'yimasun!..

*Qo'qon, 1924-yil*

**JAVOLASH***(Bir o'limning izi)*

Dedilarkim: "Vafot etdi Javolash".  
Tanlarimda cho'ziq, og'ir bir titrash.  
Boshlandi-da yaproq kabi cho'zildim,  
Bir qancha chog' tushunchada yo'q bo'ldim...  
Hay, qushlardek uchib yurgan yengil jon,  
Gavdang endi tuproqlarg'a qo'yildi,  
Izlaring ham yer betidan yuvildi.  
Faqat, ruhing ketmas ona bag'ridan!  
Boshqa dunyo tortqanida o'ziga,  
Unamoqdan boshqa yo'ling bo'lmag'an.  
Oz bo'lsa-da bir marhamat qilmag'an,  
Ma'yus-ma'yus qarasang-da yuziga...  
Dedilarki "Vafot etdi Javolash"  
Qalb ko'zimdan chiqib ketdi qator yosh...

*Qo'qon (temir yo'l bekati),  
1924-yil*



### YER ASIRALARI

Yer asiralari, yer asiralari!  
 Oltin bilakuzuklar, yoqut marjonlar,  
 Sadaf donalarni tasallilari,  
 Qo'rg'onmi, devormi nasibalari,  
 Kun sanab o'tarmi oy-yillari,  
 Tilga kelmaslarni shu qadar jonlar?  
 Yer asiralari, go'zal tonglarning  
 Sochidan ko'ngilga quvvat olingiz!  
 O'zingiz tirishib, bevihtonlarning  
 Ko'ngliga erk uchun ilhom solingiz!  
 Yer asiralari, yer asiralari,  
 Yosh to'kib yig'lashni nasibalari?!

*Andijon, 1924-yil*

### YANGLISHASIZ

Siz deysizkim, men ko'klarni o'ylayman,  
 Yer betiga sira nazar solmayman!  
 Yanglishasiz, men ko'klarga berkingan  
 Yer qizidan xayolimni olmayman...

*Qo'qon, 1924-yil*

## PARANJI<sup>1</sup>

Ko'klam chog'i bo'lsa,  
 Oy to'lsa,  
 Yulduz kulsa,  
 Seni shunda ko'rsam.  
 Bir dasta gul bersam,  
 Olsang,  
 Mast nazar solsang,  
 Bir nafas birga qolsang.  
 Abadiy zavqlarga to'lsam!..  
 Emsak –  
 Yulduzlardan nur!  
 Kiysak –  
 Shu'lalardan to'r!  
 O'ynasa, kuylasa  
 – Tiniq ko'ldan chiqib –  
 Bir to'p pari – hur!  
 Hoy, qiz!  
 Hoy, qizga o'xshagan juvon,  
 Yur!  
 Kim seni o'ylasa,  
 Borligimni yiqib,  
 Yerlarga ko'milsin!  
 Yo'q bo'lsin,  
 Yo'q bo'lsin,  
 Yo'q bo'lsin!  
 Paranji!

<sup>1</sup> Bu she'ri birovning qo'lidagi ko'rgandan so'ng do'stim Botu ham bir "Paranji" yozib, o'zining "Umid uchqunlari" da bostirib chiqardi.

Yirtingiz!  
Go'rlarga eltingiz!  
Yondiring chimmatni,  
Bo'g'masin,  
To'smasin  
Tabini ziynatni!  
Yo'q bo'lsin,  
Yo'q bo'lsin  
Paranji!  
Ochilsin,  
Gullasin,  
Yashnasin  
Paranji ostiga berkingan,  
"Menga ham erk!" degan  
Inji! Inji!!

*Qo'qon, 1924-yil*

**QOR**

Har tomonda qor, qor, qor...  
Yel bilan tushar, chiqar.  
Bulutlar elab elak,  
Separ oppoq kapalak.  
To'da-to'da ucharlar,  
Aylanishib qocharlar,  
Yellarga yo'l ocharlar.  
Mana, har tomon oppoq,  
Maydon, ko'cha, tom, chorvoq.  
Yerlar to'ngg'on, ko'k to'ngg'on,  
Havo charchab bo'g'ulg'on.  
Ko'kragiga tushgan qor  
O'ziga joy axtarar,  
Jumjit uylarni o'rar.  
Og'ir-og'ir yoyilar,  
Kafan kabi kerilar  
Qıp-yalang'och dalaga,  
Qushi ketgan uyaga.  
Qishloq biroq ko'rinmas,  
Boshidan bulut ketmas,  
Na yo'l, na iz bilinmas.

*1924-yil*

**"BOYCHECHAK"**

"Boychechakning bolasi"

Ochdi yuzini:

Suvga chiqqan xolasi

Ko'rdi qizini!

"Boychechakning bolasi"

Yetimcha bir qiz..

Uning o'gay onasi

Juda yomon, tez!

"Boychechakning bolasi"

Yulib olindi.

Yurtning ko'zi olasi

Juda sevindi!

"Boychechakning bolasi"

Har uyda kuldi.

Go'daklarning xaltasi

Non bilan to'ldi!

*Andijon, 1925-yil*

## TAN BERDIM

*"Umid uchqunlari" shoiriga*

Tan berdim men, unadim men senga, senga ey yosh kuch!  
 Haqiqatan bu kelishing zoʻr isyon!  
 Umid bilan zich toʻlibdir hamyon.  
 Qanotlaring qarshi yelni sezmaydilar, yuksal! Uch!  
 Yer kunini koʻkka ber!  
 "Yunkers", "Mars" gʻa bormoqchi,  
 Boshliqlarni olmoqchi,  
 Qanotingni kengroq ker!  
 Tomiringda isyonchi qon, toʻxtamasdan yugurib,  
 Seni doim bir talvasa quchogʻida saqlaydir;  
 Alangali tili bilan "kelgusi"ni haqlaydir.  
 Sen ham bukun, yuzlaringni kelgusiga oʻgurib,  
 Uni maqtab-alqaysen.  
 Oʻtkanlarga yomon "gina" saqlaysen...  
 Bizlar faqat oʻtkanlarga bogʻlanib,  
 Oʻtkanlardek asta-sekin yoʻq boʻldik.  
 "Koʻngil" dedik, koʻngillarda "kul" boʻldik...  
 Oʻtkanlarning kafaniga chulgʻanib,  
 U olovli koʻzlaringga qarasam,  
 Hamyonda uchib chiqqan uchqunlarni sanasam,  
 Isyon oʻqi oʻlik tanga kirmasin,  
 Otquchisi yosh -  
 Vatandosh boʻlmasin!..

*Andijon, 1925-yil*

## XX ASR

*(Usmonlicha)*

Bu emish: **Bilgi** – fan, hunar asri,  
Bu emish: Yuksalan bashar asri,  
Hadisat o'yla go'sterirki, bu asir  
Yalingiz: She'r ve she'r ve she'r asri!...

*Andijon, 1924-yil*

**KUZ GULIGA**

Rangi o'chkan,  
Umri kechkan,  
Kuz guli,  
Bu yo'li  
Pastroq egil,  
Menga bir o'pish bergil!  
Burun yoz edi,  
To'la noz edi,  
Endi kuz keldi,  
Qadding egildi,  
Ranging so'lmoqda,  
Yoshlar to'lmoqda  
G'amli ko'zlarga.  
So'lg'un yuzingga  
Kimsa qaramay,  
"Uzayin" demay,  
O'tib ketmakda!  
Kuz yetilmakda,  
Qishdan chopar bor,  
Yomon xabar bor!  
Endi noz qilma,  
Nozlanib kulma!  
Kel, labimga kel,  
Birozroq egil,  
Bir yayrab o'pay!  
Shunga esirib,  
Ruhingga kirib,  
Ko'klamga yetay!..

*Andijon, 1925-yil*



## ERKIN SINGILGA

### 1

Burun hammadan  
 Tuban tutilg'an.  
 "Chirkin pardadan  
 Endi qutilg'an" –  
 Erkin singlimiz,  
 Bizdan ham eshit!  
 Biz ham "o'z" yigit,  
 "Boshqa" emasmiz!

### 2

Kun chiqmay qo'zg'al,  
 O'rag'ingni ol,  
 Dalalarg'a bor,  
 Ekinlarni yor,  
 Bug'doylarg'a sol!  
 Yo'qsa, tong uvol...  
 Qarshingdagi chol,  
 Xayrli qarig'an,  
 Yashab horig'an,  
 Soqoli oppoq...  
 Shundoq bo'lsa-da,  
 Sendan burunroq  
 Dalaga chiqib,  
 G'aramlar yig'ib,  
 Qancha bog'lag'an!  
 Hech charchamag'an,

Oyoq-qo'l ildam!  
Yaqin borib ko'r,  
Gul yuzingni bur.  
O'ynoqlab turib,  
Sharaqlab kulib,  
"Ota, hormang!" de,  
"Charchab qolmang!" de,  
Ko'nglini ko'tar!  
Yosharib yoshi,  
Qarigan boshi  
Ko'klarga yetar!

## 3

Kuching ketadir,  
Holing bitadir.  
Charchab qolasan,  
Horib-tolasan.  
Qishloqqa qarab,  
Ekin oralab,  
Yo'lni solasan...  
Yo'lingda dala,  
Dalada "lola".  
Qip-qizil bo'lib,  
Hayotga to'lib,  
Kulib turadir...  
Senga tikilib,  
"Opajon, ol!" deb;  
Agar olmasang,  
Nazar solmang.  
"Qul"dek yalinib,  
"Qush"dek talpinib,  
O'lib turadir...

Chiday olmaysen.  
 Tek qololmaysen;  
 Havas qo'zg'alur,  
 Qo'ling uzilur,  
 Uzib olursen...  
 Ko'kat iplarga  
 Birmunchasini  
 Chizib olursen...  
 Kulib boqarsen,  
 So'ngra taqarsen...  
 Eng kenjasini  
 Axtarib topib,  
 Quloqqa taqib;  
 La'li seplarga  
 O'pkalar yoshlab,  
 Pichinglar tashlab,  
 Dashnom berarsen,  
 Yo'lg'a kirarsen...

## 4

Bir dehqon yigit,  
 Shaharga kelib,  
 Yig'ing'a kirib,  
 Ahvolni bilib,  
 Qaror o'qilg'ach,  
 Yig'in yopilg'ach,  
 Asta... piyoda  
 Qaytib boradir.  
 Qo'shuq: "Yor, dod-e..."  
 Aytib boradir.  
 Yo'lida dala,  
 Dalada "xola".

Xolada "lola"..  
Xushtor bo'ladir,  
Havas to'ladir.  
"Horma, qiz!" deydir.  
"Hormang, siz!" deysan,  
Yumshoq kuyasen  
Battar eriydir...

## 5

Bug'doy oralab,  
Qishloqqa qarab  
Ketkan vaqtingda,  
Oyoq ostingda  
Somon parchalar  
Albat, yanchalar..  
Faqat ularning,  
U miskinlarning  
Ulug' xirmondan  
Ozuqdan-dondan,  
Eng zarur "non"dan  
Uvalib tushkan  
Yerda uvushkan  
Ulug' zarralar,  
Milyon karralar  
Bo'lg'anlig'ini  
Unutma, singlim!  
Cho'psiz yerlarning,  
Donsiz yellarning,  
O'limlar bilan  
To'lg'anlig'in  
Unutma, singlim!

## 6

Kun tugal botqach,  
Daladan qaytqach,  
"Lola" dan chambar  
Taqib olasen,  
Gullardan kamar  
Topib olasen.  
Bir tup toling bor:  
Yumshoq qimirlar.  
Yosh navdalari  
Kechki yellardan.  
Yoz savdolari  
Yiroq ellardan.  
Munda quvlag'an,  
Darbadar qilg'an  
Kechki yellarni,  
Qalandarlarni...  
Tol shoxi pastak;  
Cho'zilib jindak,  
Uzib olasen  
Tol navdalarni,  
U soddalarni  
Sochingga ilib,  
"Chochpopuk" qilib,  
Yurib qolasen.  
Shunda oy chiqar,  
Zulmatni sinqar,  
Suti to'kilur...  
Butun yer yuzi  
"Oppoq ko'l" bo'lur...  
Yulduzning ko'zi,  
"Hafif" jmillab

Senga tikilar.  
 – Qanday oydinlik!”  
 Go'zal shu borliq!  
 Kechalar qutluq!  
 Degan so'z bilan,  
 Yong'an ko'z bilan  
 Asta limillab,  
 U ... yigit kelar!  
 “Hafif oydinlik!”  
 Qishloqda tinliq...  
 Ko'kda oy-yulduz,  
 Yerda yigit-qiz  
 Tunga cho'marsiz,  
 Hayot emarsiz...

## 7

Ish-kuch... kunlarda!  
 Shundoq tunlarda  
 “Hafif oydinlik!”  
 Puch narsa emas!  
 “Asil jonlilik  
 Yigit qonlilik”  
 Shunda “demasa”,  
 Shuni sezmasa...  
 Seni tanimas,  
 Hech narsa bilmas!..  
 Singlim!  
 Shundoq tunlardan,  
 Lola-gullardan  
 Tortinma, bezma,  
 Bag'rimni ezma!..

**KO'KLAM YOG'MURI**

Uch kunlik yog'mur,  
To'xtadi bazo'r:  
Bulutlar qochdi.  
Kech kirgan choqda,  
Tol shoxlarig'a  
Shu'lalar tushdi...  
Havoning yuzi,  
Zaharli ko'zi  
Muloyimlashdi.  
Sharqning malagi –  
Oy kamaligi  
Ko'kka ulashdi...  
Tolda "chochpopuk",  
Qiz ko'ngli "puk-puk"...  
Taqmoq istaydir!  
O'rtoq yonini,  
Xayrixonini  
"Ha" deb qistaydir..  
Lekin shu'lalar  
Sinib boralar...  
Oqshom "to'r" soldi.  
"Chochpopuk" taqish,  
Yigitka yoqish  
Ertaga qoldi!...

*Andijon, 1925-yil*

### SIRLARDAN

Bir tutam sochlaring mening qo'limda,  
G'ijimlab o'paymi yo tarab, ochay?  
"Sir" deb saqlaganing mening qo'ynimda,  
"Sir" deb saqlayinmi yo yelga sochay?  
Sochilg'an sochingday sochilsa suring,  
Anor yuzlaringni kimga tutasen?  
O'zing-ku: "Ularda vafo yo'q!" deding,  
Ninoga ularni tag'in kutasen?  
Ochilg'an qo'ynimda to'lg'ang'an taning,  
Ko'nglingdan qilcha ham hid yetkizmasa,  
Menga yaqinlashma! Ey, tirik bo'sa!  
"Sevdim" deganlaring, yolg'ondir sening!

*Toshkent, 1925-yil*



**KELINCHAK**

Butun gunohi  
"Ko'kqarg'a shohi"  
Kiyib yurgani..  
Dunyo ko'rkini,  
O'yin-kulkini  
Yaxshi ko'rgani.  
Har kuni sahar  
Boqchaga chiqar  
Gullar tergali.  
Eriga emas,  
Chunki, yaramas,  
Dilga bergali.  
Bo'yniga osib,  
Bag'riga bosib,  
Ovungan bo'lar.  
Bir talay g'amdan,  
Hasrat-alamdan  
Sovungan bo'lar..  
Oynakka qarab,  
Sochini tarab,  
O'ziga oshiq..  
"Shu erga tegdim,  
Qaddimni egdim,  
O'lganım ortiq!"  
Har kun ertalab,  
Bir talay g'azab  
Er o'lguridan.  
Kunduz nag'masi

Qayinonasi –  
Ko'milguridan...  
Qo'shni kelinchak,  
Istab "halunchak"  
Chiqib qoladir.  
O'ltirib yerga,  
O'sha kelinga  
Hasrat qiladir.  
Shunda ochilib,  
Xiyla sochilib,  
Ancha yayraydir.  
Qayg'uga to'lsa,  
O'zi jim bo'lsa,  
Dutor sayraydir!..

*Andijon, 1925-yil*

**KO'KLAMDAN XABAR<sup>1</sup>**

Baqa sayrasa,  
"Vaqqa-qa" desa,  
"Ko'klam qo'zg'aldi!"  
Deb, xabar bersa,  
Shunda ham ko'nglim ancha yayraydir!  
Ne uchun yaproq choyshab yoymaydir,  
Tanlariga qon  
To'lib qolsa ham,  
Ko'kragiga jon  
Kirib qolsa ham?  
Ey go'zal ko'klam,  
Sudralma sen ham!  
Yugurib-yelib,  
Tezdaroq kelib,  
O'pub ol bargni,  
U erinchakni;  
Ochsun ko'zini,  
Alvon yuzini.

*Andijon, 1925-yil*

---

<sup>1</sup> Bu narsa yosh bolalarga atab yozilgan edi. Maktab bolalariga o'qib berilgan va ularning o'zlaridan yozdirilgan vaqtda ularning qiziqqanliklari ko'rildi.

**BEZGAK QO'YNIDA**

Uch kun bo'ldi, suv kelmas,  
Ariqlardan g'uv kelmas,  
Shamollardan "huv" kelmas  
Chanqaganimda...  
Nega kuldım? – Bilmadım.  
Xursand bo'ldım – bilmadım,  
Yoshqa to'ldım – bilmadım,  
Uyg'ong anımda...  
Suv kerakmas, yor kerak,  
Yor emas, diyor kerak,  
Diyorga "fanor" kerak  
Uyg'oq chog'imda...  
"Fanor" topib oqayin,  
Qanotimni taqayin,  
Diyor ichra oqayin  
Sog'alg'anımda!..

*Andijon, 1925-yil*

## QILQIZ MAFTUNLARI

Boyadan beri yumshoq qaltirab,  
Bilanglab tez-tez,  
Silkinib turgan tol navdalari –  
Nega, bilmadim  
Birdan to'xtadi.  
Qiziqish bilan ularga qarab:  
"Boyadan beri silkinardingiz,  
Birdan nimaga bunday tindingiz.  
Ey, go'zal tollarning yosh sadolari?"  
Deb xitob qildim.  
Javob berdilar:  
"Cholg'u chalindi,  
Qilqiz yalindi,  
Ko'nglingga o'xshab biz ham jim bo'ldik,  
Qilqizning mayin zavqiga to'ldik".

*Andijon, 1925-yil*

## BIRINCHI XAT

Men  
 "Ketay" deb,  
 Tez yetay deb,  
 Bog'ladim  
 Belga kamar!  
 Sen  
 "Netay" deb,  
 "Sabr etay" deb,  
 Solmading dūga kadar!  
 "Nur olay" deb,  
 "Yuksalay" deb,  
 Men  
 Qanot qoqqan edim.  
 "Aylanay" deb,  
 "O'rgulay" deb,  
 Sen  
 Qarab qolgan eding...  
 Endi:  
 Men mundan –  
 Uzoq yerlardan  
 Chopar chopdirib  
 Yubordim bir xat,  
 Bir kichik noma!  
 Endi:  
 Sen undan –  
 Yumshoq yellardan  
 Qanot taqdirib  
 Men sari jo'nat  
 Bir suchuk noma,  
 Ey sochlari pat,  
 Ey pok muhabbat.

*Moskva, 1925-yil*

## GALDIR<sup>1</sup>

Men dutor birlan tug'ishgan, ko'hna bir devonaman,  
 Ul tug'ishgonim bilan bir o'tda doim yonaman.  
 Dillarida g'am to'la bechoralarga yorman,  
 Vaqti xush, g'am ko'rmaganlardan tamom bezorman.  
 Men dutorning har yeriga berkinib olsam agar,  
 Pardalarning har biri bergay bo'lak g'amdan xabar.  
 Pardalar uzra yurib turgan odam barmoqlari  
 Ko'kragimni ko'p bosar, shundan bo'lur tolmoqlari.  
 Ikki torni qaqshatib, barmoqlar o'tsa to'xtamay,  
 G'amli o't chiqmas o'shal torlarda "Galdir" yig'lamay.  
 Ahli g'amlar men kabi majnunsifat "galdir" bo'lar,  
 Shul sababdan bandaning nomini "galdir" qo'ydilar..  
 Yo'q ishim hokim, amaldor, shoh-u xoqonlar bilan,  
 Birgadurman doimo hamdard bo'lg'onlar bilan!..

*Andijon, 1925-yil*

<sup>1</sup> "Galdir" – 1) devona, telba, "parlshonhol" odam; 2) Bir kuy (mashq)ning nomi. Bu she'r, o'sha kuyga solinib va o'sha kuyning nomidan aytilgan.

**HOY YO'LOVCHI QIZ***(R. Tagordan)*

Men bilaman, oh, bilaman seni,  
Hoy yo'lovchi qiz!  
Dengizdan narı ma'buding seni,  
Hoy yo'lovchi qiz!  
Ko'rdim, kuz fasli, tong otar chog'da,  
Ko'rdim ko'klamda – oy botar chog'da,  
Ko'rdim qalbimda sirlık uchmoqda,  
Hoy yo'lovchi qiz!  
Yıroq ko'klarga ko'zni solaman,  
Qo'shiqlaringni tinglab qolaman,  
Sening yo'llaringda qurbon bo'laman,  
Hoy, yo'lovchi qiz!  
Butun dunyoni ko'rdim men, mana,  
Kelib turibman belgisiz elga,  
Eshiging oldida mehmonman senga,  
Hoy, yo'lovchi qiz!

*Qo'qon, 1925-yil*



### DALA YO'LLARIDAN...

Dala yo'llaridan yurib boraman,  
 Har yaproq boshimda bitta yelpig'ich.  
 Yumshoq yel...  
 Yuzimni burib boraman,  
 Hıslarım yel kabi yengil, o'ynag'ich...  
 Kichkina ariqning pastak shovvasi,  
 Mayın tovush bilan shovlab turadır.  
 "Ey, qo'pol shaharning janjal-g'ovg'asi,  
 Dala yo'llarida men borman", deydir.  
 Dala yo'llarida telbalar kabi  
 Ertadan kechgacha men ham chopamen.  
 Afsonalardagi darbadar kabi  
 Kimsasız yerlarga qo'yın ochamen.  
 Kimsasız yerlarda sırlar ayıldı,  
 G'aflat uyqusidan uyg'olib ketdim.  
 Yangi nashidalar dilga bitildi  
 Ularda tunganmas ma'ni darj etdim.  
 Shovva tovushları erkin she'rimga  
 Oltın qanot taqdi afsonalardan,  
 Olqışlar qo'zg'aldi gul-lolalardan,  
 O'zlik yot ko'rindi turgan yerimga.  
 O'zımdan tashqarı bır dunyo ko'rdim...  
 İkkımız o'shanda oqib boramız,  
 Fonıy qirg'oqlarını yıqib boramız,  
 Haqiqiy birlikka shunda yo'l burdim.  
 Shu on... o'zliklarını urib boramen,  
 Dala yo'llaridan yurib boramen.

1925-yil

**O'ZBEK CHINOVCHILARIG'A**

Yerni o'lchang, tanob torting, handasaga to'g'rilang!  
Yer ekuvchi dehqonlarning holatini ham xo'p o'ylang!  
Tanob degan jonsiz narsa mo'ljalgacha cho'zilur,  
Ammo jonli dehqonlar-chi? – Unga yetmay uzilur!  
Yer sizlarga ko'kragini katta ochib ko'rsatar,  
Dehqon bo'lsa, ko'z yoshini yerga sochib ko'rsatar.  
Raqam bilgan miya bilan dehqon g'amin anglangiz!  
Tanob tortgan qo'llar bilan yarasini bog'langiz!  
O'zingizning yer ekkanning xizmatiga chog'langiz,  
Yer va mehnat yovlarining yuragini dog'langiz!

*Qo'qon, 1925-yil*

### BAHORNİ SOG'INDİM...

Bahorni sog'indim, bahorni...  
 Ko'rganda yerlar, olamlar to'la qorni.  
 Qor... qor -  
 Zaharli ninalar kabi  
 Ko'zlarga qarab oqar...  
 Qaydasiz, qaydasiz  
 Latif siynalar kabi  
 Dalalarga singgan bahor?  
 Tala-tuz,  
 Ekin-tikin...  
 G'amgin-g'amgin  
 So'la boshladi.  
 Sarg'aygan yaproq,  
 Bo'yanib tuproq  
 O'la boshladi, o'la boshladi...  
 Yo'q... o'lim yo'qdir!  
 Yolg'iz bir o'chib, bir so'nish bordir.  
 Bir o'chib, so'nib... yana yonish bor.  
 Yana bahorlar,  
 Yana lolalar,  
 Yana siz, ey... erkin tilaklar!..

*Samarqand, 1926-yil*

**KUZ YOMG'IRI**

To'kildi tomchilar..  
Yaproqning yuzlari  
Tomchuga o'ptirib ho'llandi,  
Chuqurcha ko'llandi..  
Tomchini ko'pdirib,  
Betida o'ynatdi  
Chuqurcha,  
U – jindak ko'lcha.  
Tomchilar –  
Ko'klarning so'zlari  
Yerlarni qamchilar..

*1926-yil*

## UZALGAN QO'L

Qo'limdan tortmoqchi bo'ldimi?  
Shu ketsiz girdoblaridan qutqarib  
Qirg'oqqa otmoqchi bo'ldimi?  
Kim o'zi men kabi yo'l o'zib  
Adashgan yo'lchiga qo'l bergan  
Va yurg'un ko'zlarga termilgan?  
Charchagan qanotim kuch sezdi,  
Yanam ko'klarga yuksalish?  
Yanam ko'ngilda tebranish?  
Yo'limda bir fanor ko'rgazdi,  
Yanam yo'lchilik boshlaymen  
Va sovuq maskanni tashlaymen?  
Men unga kechmishdan – alamli  
Afsona varaqlab berayin.  
Asabiy, shikvali va g'amli  
Dostonchi ruhiga kirayin.  
Siz unga aytingiz: tinglasin  
Qaltiroq qillarning zorini.  
Qaltiroq qillarning yorini  
Yo'qotgach ezilib inglasin.  
Aytingiz: tinglarkan, ko'zlari  
Marhamat nuriga burinsin.  
Yuzida qizg'anish izlari  
Olovday qizarib ko'rinsin.  
Boshladim shikvali cho'pchakni,  
Qirg'oqdan cho'zilgan qo'llarga,  
Va balki kirmagan yo'llarga  
Kirarman axtarib istakni.

*Moskva, 1926-yil*

**BU YERNING QISHI***(Naziralarga nazira)*

Kecha-kunduz qor...  
Bu yerda falak,  
Erka bir malak,  
Par sochib oʻynar!  
Bu yerda quyosh  
Juda erinchak,  
Nozli kelinchak  
Bilganı oʻynar!  
Shunday koʻrınib,  
Jilmayib, kulib,  
Bir oʻpich bermay,  
Quchoqqa kirmay,  
Yana qaytadi,  
Sitam etadi.  
Qor parchalari –  
Toʻkulgan sadaf,  
Yotar yiltillab,  
Oy kechalari.  
Poyonsız boqcha,  
Chaman-chaman qor.  
Jonli soy oqar  
Kunduzi kecha...  
It uvlamaydi,  
Hayot qaynaydi.  
Tunni chaynaydi.  
Hech uxlamaydi,  
Koʻzni yummaydi.  
Sira tinmaydi.

*Moskva, 1927-yil*

## CHIMMAT QO'SHIG'I

(“O'zganча”)

Chimmatimni ko'tarib ko'rdi xushtorim,  
 Dedim: “Tiriklikda shudir mazorim!”  
 Chimmatimning qillari yuzimga botar,  
 Bu qafaslar ichida qachon tong otar?  
 Chimmatimni tashlasam hech kim olmaydi,  
 Ota-onam holimga nazar solmaydi.  
 Chimmat, chachvon degani, hammasi, bir gap,  
 Ko'p chiroylik ko'zlarning yoshiga sabab.  
 Chimmat tekkan yuzlarim so'lib boradi,  
 Ko'ngilda umidlarim o'lib boradi..  
 Chimmatimni irg'itay, ushla, xushtorim!  
 – Paranjini qo'shib tashla, ozodsan, yorim!

1927-yil

## QADOQCHI QO'SHIG'I

Havolarda quloch otib kelgan turnalar,  
 Bizning Qashqar ellaridan yo'qmi bir xabar?  
 Bizning ellar dovonlarning ketida qoldi,  
 Zolim falak boshimizga ayriliq soldi..  
 Olis yo'llarga qarab telmirgan yorim,  
 Bu yil qaytay desam, yetmas madorim!  
 Havolarda qatorlashib uchgan turnalar,  
 Omon bormi elda qolgan ota-onalar?..

1927-yil

ZANGBUNING QIZI<sup>1</sup>

Erta saharlarda tong shabadasi  
 O'rik gullarini o'pib o'tgandir,  
 Meni ham o'pmasin "juvon o'lgir" deb,  
 Shaftoli yaprog'i yuz berkitgandir.  
 So'rtaklar yuziga cho'zilgan "zangbu"  
 Qizi – Yaproqxonni<sup>2</sup> uyg'otib olib,  
 Yasan-tusaniga erta-kech boshlar,  
 Bilgan hunarini o'rtağa tashlar.  
 Yaproqxon ingichka gajaklar solib,  
 Onasi yonida qiyshanglab turar,  
 O'tgan-ketganlarning ko'nglidan urar.  
 Bechora Yaproqxon tortib olinib,  
 Qiymali go'sht bilan qozonga tushsa,  
 Kavartok sevganlar qator turishsa,  
 Zangbuning ahvoli nima bo'ldi deng!  
 Birining to'yiga karnay chalinib,  
 Yigitlar kuyovni olib kelganda,  
 Birining borlig'i qaynar qozonda,  
 Shuni, ey g'ofillar, esga bir oling.  
 O'tgan shabadani o'ngan bulbullar,  
 Guldan boshqasini o'ylamaslarmish.  
 Shu qadar ta'sirli, buralma tillar  
 Guldan o'zga bir so'z so'zlamaslarmish.  
 Shabada o'zi ham bugun bir o'pish  
 Bergan yaprog'ini ertaga tashlab,

<sup>1</sup> Zang – uzumning zangi. Cho'ipon Zangbu[vj] shaklida jonlantirish usuli bilan tasvirlagan (*Muh.*).

<sup>2</sup> Uzum yaprog'i.



Boshqa yaproqlarga xushomad boshlab,  
Vafoning rasmini buzib o'ynarmish.  
"Yaproqning qismati to'kilib so'lish",  
Deganlar shuni ham anglasinlarkim,  
"Turmush – hayot" degan qudratli hokim,  
Ming turli qonunlar tuzib o'ynarmish!..

*Moskva, 1927-yil*

\* \* \*

*(Haynrix Haynedan)*

Hamma esnab turdi, quloq solmadi  
Qayg'umni gapirib bergan vaqtimda.  
Meni alqamagan kishi qolmadi  
Qayg'umni nazmga tergan vaqtimda.

*1927-yil*

**QAYTISH**

Sira tashlamay seni,  
Ko'z yoshlarida meni  
O'stirgan, asl she'rim!  
Bir choqlar ko'kim, yerim,  
Qiblam, istagim eding,  
Ko'ngil chechagim eding.  
Sensiz kunlarda yana,  
Bo'shlik to'ldi ko'ngilga,  
Yana hamdamsiz qoldim.  
Ko'nglimga alam oldim,  
Qo'limg'a qalam oldim,  
Yana jonlanmakchiman!  
Ko'nglim ko'nglingdan mayin,  
Ko'nglingga kirmakchiman!..

*Farg'ona, 1927-yil*

## XIZMATCHI BOLA QO'SHIG'I

### *Xitoy ohanglari*

*("Tort na'rangni, Xitoy" pyesasida o'zini  
o'ldirayotgan xizmatchi bola aytadi.)*

Tomirimni hakimlar qachon ko'radi?  
Jon oluvchi bo'ronlar qachon yuradi?  
Kuz barglari to'kildi: sap-sariq somon?  
Yo'qsillarga tiriklik o'limdan yomon...  
Bu qorong'i kechalar boylar uchun soz,  
Bizdek boyaqishlarga o'limdan ham noz...

1928-yil

## JAN-ZI

Sholi desang doirangda, Jan-Zi,  
Boshog'lar har yonda, Jan-Zi,  
Boylar har kun osh yesa, Jan-Zi,  
Kambag'allar hayronda, Jan-Zi.  
Qamish baland o'sadi, Jan-Zi,  
O'sib yo'lni to'sadi, Jan-Zi,  
Hamma chiqqan general, Jan-Zi,  
Kambag'alni kesadi, Jan-Zi.

1928-yil

**MEN SHOIRMI?¹***Tarjimai holimga*

Xayolim bir uchib, ketib qoladir,  
Men ham tizginini qo'yib beramen.  
Zotan, qandoq qilib tutib turamen?!  
Eng nozik qilimg'a tegib qoladir.  
Uchadir... uchadir... ming qabat ko'kni,  
Bir boshdan siypalab o'ta beradir.  
Zerikmay, erinmay keta beradir,  
Ba'zan hovliqtirib jinni yurakni...  
Ko'lanka kabidir, o'tkan yeridan  
So'ngra qarasangiz, bir nishon qolmas,  
Yurgan yerlaridan oziq ham olmas,  
Shunda zerikamen uning sayridan...  
Bir zamon bir shirin joyga yetkanda,  
Nariga o'tmasdan to'xtab qoladir,  
Oshiqdek yastanib, yotib oladir...  
Shu choqda qiynalish boshlanar menda.  
Chunki xayolimning ko'zları bilan  
Bir go'zal holatni ko'rib turamen,  
Lazzatga g'arq bo'lib, o'lib turamen  
U holni borliqning so'zları bilan  
Anglatish qo'limdan kelmay qoladir,  
Shul choqda tillarım qaldirab ketib,  
Borlig'im yo'qlikka g'ildirab ketib  
Demakki, "Boshqalar bilmay qoladir"

---

Bu she'r Toshkentdagi O'lka o'zbek bilim yurtining yuqori sinf o'quvchi-

Shunday go'zallikni! Attang, agar men  
Rassom bo'lsam edi, chizib berardim,  
O'xshash nusxa bilan yozib berardim.  
Shu ojiz holimda shoirmenmi men?!"  
Shoirlik menda bir soyami deymen,  
Har bir tushunchamni yoza olmag'ach,  
Rassomdek xayolni chiza olmag'ach,  
Haqir borlig'img'a ko'p afsus yeymen...  
Xayolim yuksakdan tushib ketadir,  
Shoirlik chang bo'lib, uchib ketadir...

*Qo'qon, 1928-yil*

## O'N OLTI

O'n olti martaba to'plandik bizlar –  
Tutqun otalarning erkin avlodi.  
Po'latdek pishiqlik, matonat berdi  
Temir kishanlarning dahshatli yodi.  
O'n olti martaba to'plandik bizlar  
Asrning choragi o'tmasdan turib.  
Biz, yangi yetishgan – navqiron kuchmiz,  
Matlabga yetamiz chopib, yugurib.  
Bizning asabimiz necha ming yillar  
Kishanlar ostida shu qadar pishdi –  
Ki, shuncha og'irlik ichida aslo  
Shoshmadik, dushmanlar hayron qolishdi!  
Bizning safimizni oralab ba'zan  
Dushmanning zaharlik fikri kirsa-da,  
Biz sergak odamlar va qarshimizda  
Saqlanib qololmas hech qanday parda!  
Bizning yo'limizda og'irlik sonsiz,  
Birma-bir ularni yengmay qo'ymaymiz!  
Bizdagi bu imon senda yo'q aslo,  
Ey dushman, negakim, ko'nglimiz tamiz!  
O'n olti martaba to'planib bizlar  
Rejalar tortishdik yangi ishlarga,  
Nima deyishini bilmaydi dushman,  
Bu reja bo'yicha yugurishlarga!  
O'n olti martaba to'planib bizlar  
Qo'l soldik hayotning tomirlariga!  
O'zimiz hayotni tebratuvchi kuch!  
Jonlilar qayrilib boqmayajaklar,

Shafaqlar qizarib oqmayajaklar,  
 O'lim olqishini yuksaltirajak,  
 Zulmat g'urublardan salom berajak:  
 Hayotning yolg'onchi amirlariga!..

1930-yil

### DARYO BO'YI

G'afur G'ulomga

Bu Uchqo'rg'on, ajab, obi-havosi dilnavoz ermiş,  
 Xususan daryoning qirg'oqlari kuz fasli soz ermiş.

Talotum aylashib suvlar choparmish telba majnundek,  
 Qiroqlar bevafo mahublardek yo'lda g'oz ermiş...

Tiniq oy nurlari suvlar yuzında o'ynashib tunlar,  
 Tong otguncha ularning ishlari ming turfa noz ermiş.

Bo'lak joylarda tan rohat topolmay cheksa zahmatlar,  
 Butun yoz o'tkuncha daryo suvida "aboz" ermiş.

Ko'rib Norinni ta'bi jo'sh urib bir-ikki so'z aytgan  
 Aruzdan bahrasiz bir Cho'lpon otlik benamoz ermiş.

1931-yil

## QO'SHIQ

*"Xush keldingiz Xorazmga" kuyiga*

Buzib eski turmushlarni,  
Bajardingiz zo'r ishlarni,  
Ado qilib yumushlarni,  
Hormang endi, kolxozchilar!  
Oq oltinlar rivojlandi,  
Ko'p ishlagan ko'p qozondi.  
Mehnat dushmanlari yondi,  
Hormang endi, kolxozchilar!  
Intizomni joylab safga,  
G'ayrat solib har tarafga,  
Erishdingiz zo'r sharafga,  
Hormang endi, kolxozchilar!  
Qo'lga olib tuproq-konni,  
Aziz ko'rib ishlaganni,  
Bajardingiz zo'r planni,  
Hormang endi, kolxozchilar!  
Firqa sizning rahbaringiz,  
Buzilmaydi saflaringiz,  
Sharaf to'la daftaringiz,  
Hormang endi, kolxozchilar!

*1933-yil*



## BIR LAVHA

*(Shanxay voqealaridan)*

Nagasaki limanidan jildi paroxod.  
 Bir paroxod emas, balki ulkan bir flot!  
 Vampu daryo suvlarini qopladi to'liqin.  
 Sizinvaning havosini zaharlik tutun  
 Bir haftadan beri birdak bosib turadi.  
 Tog' to'plari kemalarga olov uradi!  
 Settilmentdan tashqarida bu mudhish uchish  
 Kecha-kunduz og'ir tushday davom etadi.  
 Og'ir o'qlar yer bag'rini yorib titadi!  
 Keng maydonda o'liklar yo'q, o'lganlar sonsiz!  
 Ko'p "madaniy" urush bo'ldi o'liksiz, qonsiz:  
 Har bir o'lik bir nechaga bo'linib ketgan,  
 Yo qo'lini, yo butini birdan g'ayb etgan,  
 Biri qumlar orasida arang ko'rinar,  
 Biri oyoq ostlarida qolib surunar..  
 Ko'p "madaniy" urush emish - o'liksiz, qonsiz!  
 Obro'ylik bir gazetada qaysi vijdotsiz  
 Shu mazmunda yozuv yozib jar chaqiradi.  
 Xo'jayini ham chiqarmay elni qiradi!  
 Ikkovi ham "vahshiylar"ni yo'lga solmoqchi,  
 Ikkovi ham "vahshiy el"da turib qolmoqchi,  
 Ikkovi ham "vahshiy"larni yomon ko'radi,  
 Ko'cha-ko'yda ko'ringanda yuz o'giradi.  
 Ikkovi ham "vahshiylar"ning kuchiga xushtor!  
 "Vahshiylar"ga bu sevgidan nima foyda bor?  
 Settilmentdan uchib o'tdi xunuk qora qush!  
 Restoranda bilinmadi bu mudhish uchish.  
 Chunki unda jaz shavqini quloq yoradi,  
 Tashqarida och bir xitoy, hey, yolvoradi,  
 Hey, yolvoradi!..

\* \* \*

Barcha umid sen karamdan, ey karam, qulg'ul karam,  
 Bir umr og'zimga olmay, qanddin yetdi alam.  
 Non bilan un ham o'shal qandning yo'lida jilvagar,  
 Ul ikkovidin ham tonib, ming martaba ichdim qasam.  
 Mevaxonlar, shinnijonlar, endi noz etmang menga,  
 Siz bilan o'ynashgili yo'qdir ko'ngilda hafsalam.  
 Garchi kartoshka menga ixlosini bildirsa-da,  
 Hech yaqin bormasman aslo unga endi, jon akam.  
 Tashladim shunday palovni, bor debon unda gurunch,  
 "Ovqating doim palov bo'lsin" degan erdi dadam.  
 Do'stlar mehmonga chorlab, qo'ysalar qand-u shakar,  
 Hayfdir undoq takalluf men uchun ortiq hasham.

### BAYRAMDA SHAHRIMIZ

Turdi rohat uyqusiday shahrimiz erta sahar,  
 Tushdi istiqboliga ortib quyoshdan zarralar.  
 Tilladan yaproq taqindi, bog'chalar-la parklar,  
 Jonli selga ochdi yo'l alvon kiyingan arklar.  
 Daryodek toshdi qizil bayroq bilan ulkan shahar,  
 Kuldi bayroqlar kabi quvnab yashargan chehralar.  
 Otga mingan mard yigitlar, tanka mingan qahramon,  
 Barcha quvnoq chehralarga yov xurujidan omon!  
 Qancha lochin osmonda... Mangu qayrilmas qanot,  
 Sulhparvar o'lkamizga yov hujumidan najot.  
 Uyqudan turgan shaharning chehrasi qanday yorug'!  
 Yalladan tinmaydi bir dam... jildirab oqqan arıq!

1935-yil

## NIL QIZI

Go'zal Nil bo'yidan –  
 Falloh<sup>1</sup> qiziman.  
 Ehromlar yo'lida  
 Karvon ızıman.  
 Toshqindan tug'ildim  
 Erta bahorda,  
 Iliq nurlar emdim  
 Kundan nahorda.  
 To'kilgan xurmolar  
 yemishim bo'ldi...  
 Olovli sevgilar  
 yelga tutildi.  
 Sevganim qul bo'lib  
 Sotilib ketdi.  
 Minglarcha qullarga  
 Qotilib ketdi...  
 Butun hayotimni  
 Bir zahar sirdi.  
 Qo'ynimga sevmagan  
 Bir erkak kirdi!  
 Onamdan ayrildim  
 "Ona" deguncha,  
 Otamni ko'rmadim  
 Ko'zim to'yguncha...  
 Nilning barakasi  
 Dunyoga tatir.  
 Fallohning baxtini  
 Kimlar uyg'otur?..

1934-yil

---

<sup>1</sup> Misr dehqoni.

## NORIN DARYO

Bosh ko'targan qullar kabi hiddat bilan,  
 Hujum qilgan qo'shin kabi shiddat bilan  
 To'lqinlardan o'rkach otib yuksaklarga,  
 Achchig' bilan o'zni urib tirsaklarga,  
 Och yo'lbarsday na'ra tortib kelishing bor!  
 Asov otday telbalanib yelishing bor!  
 Biroz to'xtab dam olishni bilmaysan hech!  
 Qay chopasan, yugurasan erta-yu kech!  
 O'kirishing avj oladi kechalari!  
 Yuraklarga xavf soladi kechalari!  
 Kechalarning jimligini bitirasan!  
 Ammo-lekin jinnilikni qotirasan!  
 Yo'llaringda och sahrolar entikadi,  
 Tashna tuproq suqi kirib ko'z tikadi!  
 Qurib yotgan arıqlarning ko'zi senda!  
 Ko'p bo'g'inning hasrat to'la so'zi senda!  
 Senda, koshki, bir aylanib qarash bo'lsa,  
 Qirg'oqlardan hol-u ahvol so'rash bo'lsa!  
 Shu oqish-la yuz yillarni oqizgan – sen!  
 Ko'p bo'g'inni tobutiga yotqizgan – sen!  
 Senga qolsa shu oqish-la yana yuz yil,  
 Yana ming yil, minglarcha yil...  
 Bas endi! Bil:  
 Yuz yillarning ixtiyori senda emas!  
 Odam bugun hech bir kuchga banda emas!  
 Sen, azamat, shunday yerdan o'tasankim,  
 Senga o'xshash yuzi qora daryolar – jim,  
 O'kirmasdan. bo'kirmasdan oqadilar,

Buyruq kutib qirg'oqlarga boqadilar!  
 Sendan asov, sendan yomon daryolar ham  
 Bo'yin egib kelishdilar biram-biram!  
 Dneprni bilarmiding? Balo edi!  
 "Men telbaga kishan bormi, qalay?" derdi.  
 Ozod mehnat bir hamlada ushlab olib,  
 Oz fursatda odam qilib – yo'lga solib  
 O'z erkida o'ynatadi u telbangni!  
 Shoshma, hali, tizginlaydi bir kun...  
 Gangni!  
 Sen mag'rursan! Senga, hali tegmaganlar,  
 Sening temir irodangni egmaganlar.  
 Hali seni po'lat qo'lga olmaganlar,  
 Yo'llaringni och cho'llarga solmaganlar,  
 Qurib yotgan arıqlarga oqqaning yo'q!  
 Oq oltindan shokildalar taqqaning yo'q!  
 Elektrik yulduzlarni yoqqaning yo'q!  
 Lampa ko'z-la mamlakatga boqqaning yo'q!  
 Erta-indin sen jinniga tegajaklar!  
 Irodangni – metin bo'lsin! – egajaklar!  
 Seni po'lat qo'llariga olajaklar!  
 Yo'llaringni och cho'llarga solajaklar!  
 Qurib yotgan arıqlarga oqajaksan!  
 Oq oltindan shokildalar taqajaksan!  
 Elektrik yulduzlarni yoqajaksan!  
 Lampa-ko'z-la mamlakatga boqajaksan!  
 Niagara qarı, sendan ancha katta,  
 Dnepr ham undan kichik shu fursatda.  
 Niagara ko'pdan beri tizginlangan,  
 Uning asov yelkasiga odam mingan.  
 Faqat uni, bilasanmi, kimning quli?  
 Parrasini aylantirgan kimning puli?  
 Boshqalarning terisini oqizganlar,

Bankalarga pullarini yotqizganlar,  
Yo'qsillarni zuluk kabi so'ruvchilar,  
Manfaatga o'zlarini uruvchilar,  
Birovlarning yelkasida yashovchilar,  
Millionlarning luqmasini oshovchilar!  
Sizga ega – o'z kuchi-la ishlovchilar,  
Luqmasini halol qilib tishlovchilar!  
Qul zotini ozodlikka boshlovchilar,  
Haq kurashga millionlarni tashlovchilar!  
Ular sizni haq yo'llarda oqizajak,  
Ko'z nuriday aziz qilib boqizajak!  
Hech bir kuchni qo'ymayajak teksin sizga!  
Qonga botgan qo'llarini egisin sizga!..

1934-yil

## YANGI MEN<sup>1</sup>

Menda endi qayg'ular yo'q,  
 Men bahorlar kabi shanman,  
 Kechalarning o'limiga  
 Qahqahalar solgan manman!  
 O'lik ruhli kechalardan  
 Sir kutishlik menda yo'qtur,  
 Men istamam, qora savdo,  
 Kishaningni Majnunga ur!  
 Mening yangi vatanimda  
 Na Majnun bor, na-da zanjir!  
 Munda har bir ishlaganning  
 Baxti quchog'ida kelur!  
 Munda mehnat bir hukmdor,  
 Amr etadi, charchatmaydi,  
 Chunki mashshoq o'z soziga  
 Sevgisini yo'qotmaydi.  
 Munda mehnat quvnaq-quvnaq  
 Mo'jizalar yaratadi.  
 Munda har kun sho'x qo'shiqlar,  
 Kuylar ıla tong otadi.  
 Millionlarning biri kabi  
 Men ham har kun ter to'kaman,  
 Har kun yangi hayajonlar,  
 Zafarlarga ko'nikaman!  
 Millionlarning biri kabi  
 Men ham quvnoq, men ham shanman,  
 Kechmishlarning o'limiga  
 Qahqahalar solgan manman!..

1934-yil

<sup>1</sup> Bu she'rning asli ozarbayjon turkchasida yozilgan.

### BIZNING VATAN

Yer yuzinda o'zga bir olam erur bizning vatan,  
Boshqa har bir o'lkadan keng, har diyordan kattakon.  
Har tomondan yuksalish soriga tashlab zo'r qadam,  
Dasht-u sahrosi aning gul-gul ochilmishdir chaman!  
Daryosi avvalgidek, yerdan olib qochmas o'zin,  
Chunki poyiga uning mahkam urilmishdir kishan.  
Munda mehnat – hurlik olgan, barcha mehnat ahli – hur!  
Kimki mehnat qilsa – quvnoq, kimki mehnat qilsa – shan!  
Fan bilan mehnat ikkovlon qo'l berishkan, ittifoq,  
Erkin-erkin yayrashib ijod etar mehnat va fan!  
Yangi jamiyat qurib dunyoga o'rnak bo'lgani  
Barcha mehnat ahli birga, hamma bir jon, bir badan!  
Bu vatanni jon bilan saqlashga, Cho'lpon, hozir o'l,  
Kimki qasd etsa anga kiyisin pushaymondin kafan!..

1934-yil



**YANA OLDIM SOZIMNI**

Bir necha yil qantargach  
Yana oldim sozimni,  
Endi aytib yig'lamas  
Ko'ngildagi rozimni.  
Ko'ngildagi kudurat  
Ko'tarildi, nihoyat,  
Endi, ilhom manbai –  
Qaynab yotgan shu hayot!  
Qillaridan sozimning  
To'kilajak shan kuylar,  
Hur o'lkaning hur qizi  
Singari qashan<sup>1</sup> kuylar.  
Qurilish dostonlari  
Pardalardan oqajak.  
Eh ko'ngil, yangi dardlar  
Tag'in seni yoqajak!

*1934-yil*

**KUZ**

Daraxtlar taniga tirmashdi izg'irin,  
Shoxlarga ilonday chirmashdi izg'irin.  
Qo'llari barglarning betida surundi,  
Barglarning bandini qirt etib kesishga  
Urindi...

Yer beti qoplandi mallarang choyshab-la,  
Boqchalar qoplandi rang-barang choyshab-la!  
Qish, qirov orqali jo'natti nomasin,  
Yaqinda chalajak yoqimsiz nag'masin...  
Guppi to'n vazmin solajak bus-butun,  
Ishiga qaytajak o't, o'tin!

Lekin biz qosh-qovoq solmaymiz kuz kabi,  
Yuzlarga g'am rangi olmaymiz kuz kabi.  
Yulduzday yonuvchi ko'zlarni o'ynatib,  
Shu katta,

Dumaloq kurraning  
Oltidan biriga qaraymiz!

Qish-u yoz  
Bir xilda ishlatgan,  
Bir xilda yaratgan,  
Shu tinmas

Va sayoq kurraning  
Oltidan birini o'ziga qaratgan,  
Ishlash-la tishlatgan  
Yeriga qaraymiz!

Ishlashda – buyuk zavq!  
Mehnatda – ulug' shavq.  
Hodda – o'lmaslik

Va foniy bo'lmaslik  
Ko'ramiz!  
Kuzda ham,  
Qishda ham,  
Bahorlar shavqi-la,  
Aylanar kurramiz!  
Mayli,  
Har daraxtga tirmashsin izg'irin.  
Shoxlarga, ilonday chirmashsin izg'irin!  
Mayliga,  
Qish agar  
Yo'llasa nomasin!  
Boshlasa  
Beta'sir,  
Yoqimsiz nag'masin!  
Biz  
Qishdan  
Yoshlarning rizqini olamiz!  
Qishni ham,  
Yozni ham  
Rejaga solamiz!..

*1934-yil*

## BU O'LVANING KO'KLAMI

*(Kavkaz xotiralari)*

Bu o'lvaning ko'klami juda ham namgarchilik,  
 Quyosh bulutlar bilan o'ynashadi, shekilli.  
 Qachon ko'rsam yashiringan o'yinqaroq boladay,  
 Meni entiktirmoqchi, o'ynashib, alday-alday...  
 Meni aldarsan, quyosh! Meni aldash osonroq.  
 Nishondorni aldab ko'r, shunda senga beray haq.  
 U havoning nozini nazariga ilmaydi,  
 Maskovda va'da bergan, boshqa gapni bilmaydi.  
 Bulut yerni qamchilab osmon bo'yi suzarkan,  
 Bemahal xuruj qilib, mo'ljallarni buzarkan,  
 Nishondorning yuzlari jilmayadi beparvo:  
 "Qo'rqitolmaysan, – deydi, – sen bizni injiq havo!"  
 Adirlarga qaraydi: har tomon yashil bug'doy!  
 "Nima qilayin, – deydi, – bulutlarni maqtamay?  
 Rizqimizni ularning xurujidan olamiz,  
 Shu tomchilar ostida ko'karadi dalamiz!"  
 Boya, do'llar ostida chopib o'tdi ishiga.  
 Havo tusholarmidi nishondorning peshiga?  
 Quyosh hali inidan tuzuk-quruq chiqmasdan,  
 Bulut ho'l lungsini qattiqqina siqmasdan,  
 Maysalar erta bilan dildirashib qararkan,  
 Sovuq shamol tanlarni qashlog'ichda tararkan,  
 Dalalarda nishondor bahorni bog'lab olgan,  
 Dalada bir jon bormi – havoga nazar solgan?  
 Jo'xori donalari xolis oltinday toza,  
 Bejirim qurutganlar oftobga yoza-yoza.

Qora yerning bag'riga ko'mildilar donalar,  
 Ha, Quyosh, ko'kdagilar ko'p yomon aldanalar.  
 Bu o'lkaning egasi – butunlay yangi odam,  
 Qo'yadimi g'urur tilasin ko'kdan yordam?  
 U sening ko'klarini o'z amriga olajak,  
 Achchig'ing kelgan bo'lsa, olovingni baland yoq!  
 U sening olovingdan mo'l-ko'l hosil olajak,  
 Seni ham bora-bora o'z yo'lga solajak!..

1936-yil

### BULBUL VA GUL

*(A. S. Pushkindan)*

Bahor chog'ida xoli bog'da bir zulmatli tun erdi,  
 G'arib bulbul fig'on aylab, "Gulim, rahm aylagil", derdi.  
 Biroq ul gul quloq solmas edi faryod-u afg'ona,  
 Faqat orom olardi noladin to'lg'ona-to'lg'ona.  
 Seni hech sevmagan bir gul uchun, ey shoirim, sen ham  
 Yonarsan, o'rtanarsan, dod etarsan tinmayin bir dam.  
 Qo'y endi, behuda dod etma, ohing unga yetmaydi,  
 Qaraysan, yashnagan bir gul, faqat dodingga yetmaydi.

1936-yil

## BIRINCHI SAN'AT NISHONDORI O'RTOQ UYG'URGA

Sahna san'atini bola chog'idan  
 Mehribon onadek parvarish qilding.  
 Asabing metindan pishiqroq edi,  
 Bilaman, shunda ham qancha siqilding!  
 Butun yoshligingni sahnamiz oldi,  
 Yoshlik g'ayratini sen unga berding.  
 "Turkiston tabibi" o'ynalar ekan,  
 "Sahnamiz "Hamletga yetadi!" derding.  
 Birga qadam tashlab inqilob bilan  
 Sahna san'atini shuncha yuksaltding.  
 Elni sevintirib qanday porladi  
 Eng buyuk asari V. Shekspirning!  
 Bugun oldingilar safiga o'tib,  
 Qanday go'zal joyni oldi sahnamiz.  
 Nihoyat, seni ham oldingi safda  
 Faxriy nishon bilan ko'rdik hammamiz.  
 Ko'ngildan qutlayman! Bu ulug' nishon  
 Yangi yutuqlardan xabar demakdir.  
 Sovet san'atining qizil bayrog'in  
 Tobora yuqori ko'tar demakdir!

1936-yil

## MUNDARIJA

O'zbekim .....	3	Kurash.....	34
Go'zal .....	4	Ketding! .....	35
Xayoli.....	6	O'limdan kuchli.....	36
Sharq qizi.....	7	Nimaning hidi .....	36
Po'rtana .....	8	Ishq yo'li.....	37
Ulug' Britaniyaning bu kungi hokimiyatiga.....	11	Yana qor .....	38
Ulug' yo'lda .....	12	To'fon.....	39
Yorug' yulduzga .....	13	Yashayish.....	40
Zarafshon.....	15	Kulmak istading.....	41
Qalandar ishqī.....	16	Yotoqdan.....	42
Tortishuv tongi.....	17	Qilich va qon.....	42
Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasi .....	18	Qizarish .....	43
Parcha .....	19	Og'riganda.....	44
Suygan choqlarda.....	20	Qish kechalari .....	45
Kleopatra uyqusi .....	21	O'tli suv.....	47
Xalq .....	23	Sevgi va saltanat .....	48
Kel beri .....	23	Shu kunda.....	49
Men qochmadim.....	24	Sendan yiroqda.....	50
Ulug' yo'lovchiga.....	25	Go'zal Farg'ona .....	51
Navro'z kunida .....	26	Go'zal Turkiston.....	52
Men va boshqalar.....	27	Barg.....	53
Kuz.....	28	Nima? .....	54
Buzilgan o'lkaga.....	29	Vijdon erki.....	55
Amalning o'limi.....	31	Sharaflik xizmat.....	56
Yong'in .....	32	Yupanmoq istagi.....	57
Ilyqu.....	33	Ketkaningda .....	59
		Qo'zg'alish .....	60
		Satang.....	61

Ko'ngil .....	62	Somon parcha .....	96
Qizlarning daftariга .....	62	Xazon .....	97
"Ko'ngil jimdir, sovuq..." .....	63	Damlar .....	98
Odami va qush .....	63	"Ba'zan xayol etagini..." .....	98
Kishan .....	64	Sezgi .....	99
Qish oldida .....	65	Tashlama .....	99
Alamzadalar .....	66	Jar bo'ylarında .....	100
Erkinlik istagi .....	67	Ko'rungan alanga .....	101
Binafsha .....	68	Raqamlik sevgi .....	102
Ko'klam qayg'usi .....	69	Qushning hadigi .....	103
Tun .....	70	O'sh kechasi .....	104
Ket! .....	72	Ko'klam keladir .....	105
Aldanish .....	73	Istash .....	106
Ilitil! .....	75	Yana ko'klam .....	107
Oppoq oy .....	76	Ikki o't o'rtasida .....	108
Yurt yo'li .....	77	Bahor va men .....	108
Kaptar .....	78	Gulsara .....	109
O'zbek qizi .....	80	Vahm .....	110
Kechkirish .....	81	Bahorda .....	111
Menim yo'llarında .....	82	Katta yo'l bo'yida uchragan yaproq uchun .....	112
Bas endi! .....	83	Ey, bulut .....	114
Chechak .....	84	Buloqlar quchog'ida .....	115
Sevinchingni qurala! .....	85	Yozning tugalishi .....	116
Suhbat .....	86	Sozim .....	116
Bahor keldi .....	87	Shaftoliga .....	117
Uch-to'rtta yulduz .....	88	Javolash .....	118
Balandlıqda .....	88	Yer asiralari .....	119
Yana o't .....	89	Yanglishasiz .....	119
Oy qo'ynida .....	90	Paranji .....	120
Qiz qo'shig'i .....	91	Qor .....	122
"Ichki hislar" ostida .....	93	"Boychechak" .....	123
Men ham sevaman! .....	94	Tan berdim .....	124
O'zimiznikiga .....	95	XX asr .....	125
G'aflat .....	95		



Kuz guliga .....	126	Qaytish.....	152
"Erkin singil"ga .....	127	Xizmatchi bola qo'shig'i..	153
Ko'klam yog'muri .....	133	Jan-Zi .....	153
Sirlardan .....	134	Men shoirmi? .....	154
Kelinchak.....	135	O'n olti.....	156
Ko'klamdan xabar .....	137	Daryo bo'yi.....	157
Bezgak qo'ynida.....	138	Qo'shiq .....	158
Qilqiz maftunlari .....	139	Bir lavha .....	159
Birinchi xat.....	140	"Barcha umid sen	
Galdir.....	141	karamdan..." .....	160
Hoy yo'lovchi qiz.....	142	Bayramda shahrimiz .....	160
Dala yo'llaridan.....	143	Nil qizi.....	161
O'zbek chinovchilarig'a ..	144	Norin daryo .....	162
Bahorni sog'indim... ..	145	Yangi men.....	165
Kuz yomg'iri .....	146	Bizning vatan .....	166
Uzalgan qo'l .....	147	Yana oldim sozimni .....	167
Bu yerning qishi.....	148	Kuz.....	168
Chimmat qo'shig'i .....	149	Bu o'lkaning ko'klami .....	170
Qadoqchi qo'shig'i.....	149	Bulbul va gul.....	171
Zangbuning qizi .....	150	Birinchi san'at nishondori	
"Hamma esnab turdi..." ..	151	o'rtoq Uyg'urga.....	172

22.300 so'ra

*Adabiy-badiiy nashr*

**CHO'L PON**

## **KO'KLAM RUHI**

*She'rlar*

<i>Muharrir</i>	Saidmurod XOLBEKOV
<i>Badiiy muharrir</i>	Bahriddin BOZOROV
<i>Texnik muharrir</i>	Dilmurod JALILOV
<i>Sahifalovchi</i>	Madina ABDULLAYEVA
<i>Musahhih</i>	Nigora G'ANIYEVA

Nashriyot litsenziyasi AI № 315, 24.11.2017.

2019-yil 7-iyunda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$ , Cambria garniturası.

Ofset bosma, 5,5 bosma taboq. Nashr tabog'i 2,88.

Adadi 10000 nusxa. 140-raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

**YOSHLAR NASHRIYOT UYI.**

Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.





ISBN 978-9943-5529-6-8



9 789943 552968